Shuni ta'kidlash kerakki, vaqtli intervallarga rioya qilish vazifalarining yechimi dasturiy vositalar ayrim yo'riqnomalar bajariladigan t vaqtini, siklda uning N -karrpali bajarishni tashkil etish oson emasligini bilgan holda, shu bilan birga $T=Nt$ davomiylik bilan kechikishni ta'minlagan holda qo'llanilishi mumkin, biroq, bunday holatda boshqa dasturiy harakatlarni (masalan, axborotni yig'ish, operator bilan ma'lumotlar almashinuvi va h.) bajarish mumkin emas. Bundan tashqari, T kvant qoniqarsiz darajada katta bo'lishi mumkin. Taymer-hisoblagichlar MKning barcha modellarida amalga oshiriladi.

2.3. Jarayonlarga ishlov berish bloklari

Taymer-hisoblagichlar qo'llanilishi bilan erishiladigan vaqt funksiyalarini amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirish uchun MKning ayrim modellarining periferiya qurilmalar tarkibiga taymer-hisoblagichlar bilan bog'liq bo'lgan vaqtli hodisalarga apparatli ishlov berish bloki kiritilgan.

Turli firmalarning MKdagi bunday bloklarning nomi farqlanishi mumkin:

EPA (Event Processors Array – hodisalar protsessorlar massivi), HSIO (High Speed Input/Output unit – tezkor kiritish-chiqarish bloki), RSA (Programmable Counters Array – dasturlanadigan hisoblagichlar massivi) va boshqalar.

Bunday bloklarning asosiy vazifalar quyidagilar hisoblanadi:

- berilgan ko'rastkichli hodisalar (hodisalarni tutib qolish) sodir bo'lgan vaqtni aniqlash. Tutib qolishni dasturiy amalga oshirishning prinsipial qiyinchiligi taymer ma'lumotlarining ko'rsatkichini aniq o'qish imkoniyati mumkin emasligi bo'lib hisoblanadi (chunki taymer razryadliligi ichki shina razryadliligidan oshadi va registr fragmentlarini ketma-ket o'qish protsedurasi o'zgarishlar bilan bajarilishi mumkin);

- vaqtning berilgan momentida berilgan ko'rinishdagi hodisalarni generatsiyalash (vaqtga nisbatan hodisani bog'lash). Bog'lashni dasturiy amalga oshirishning prinsipial qiyinchiligi vaqtning berilgan momentini aniqlash momenti (masalan, taymer ma'lumotlarining registrini to'ldirish bo'yicha) va berilgan mantiqiy hodisalarni generatsiyalash komandalarini bajarish momenti o'rtasidagi vaqtli kechikishning mavjudligi bo'lib hisoblanadi;

- umumiy vaqtli bazadagi keltirilgan ko'rinishlarning ko'p kanalliligini ta'minlab turish. Ko'p kanallilikni dasturiy amalga oshirishning prinsipial qiyinchiligi bir nechta dasturiy modullar tomonidan taymer ko'rsatkichlarini kuzatishning murakkabliligi va samarasizligi bo'lib hisoblanadi.

Ahamiyatli belgilangan qiyinchilik bo'lib, dasturiy ishlov berish o'lchanadigan va generatsiyalanadigan intervallarda ahamiyatli xatoliklar kiritiladigan hodisalar o'rtasidagi vaqt intervallarida hisoblanadi. Mantiqiy signal qiymatining "0" dan "1" ga o'zgarishida va aksida yozish strobi ishlab chiqariladi va ushlab registriga yoziladi. Bayon etilgan amal ushlab voqeasi deb ataladi.

2.4. Uzilishli hodisalarga xizmat ko'rsatish bloklari

Har qanday hisoblash tizimlarining ishlashi (shu jumladan MK asosida), qoidaga ko'ra, ayrim hodisalarga xizmat ko'rsatish nazarda tutiladi. MKda uzilishlarga ishlov berish ham mikroprotessorli tizimlarda uzilishlarga ishlov berishning umumiy tamoyillariga asoslangan holda olib boriladi. Uzilish moduli uzilishga so'rovni olgach ma'lum uzuvchi dasturni bajarishga o'tishni tashkillashtiradi. Uzilishga so'rov tashqi manbalardan ham va shuningdek MK turli ichki modullarida joylashgan ma'nbalardan ham berilishi mumkin. Ularning yuzaga kelish sababalari va joyi turlicha bo'lishi mumkin, biroq ushbu hodisalar bitta umumiy xususiyatga ega bo'ladi, ularning yuzaga kelish vaqti dastur uchun oldindan ma'lum emas. Shu sababli hisoblash tizimida hodisalarni aniqlash dalili bo'yicha ularga xizmat ko'rsatishning ayrim hodisalarining vositalarini nazarda tutish zarur bo'lgan ushbu hodisalarni aniqlash vositalari nazarda tutiladi. (Chunki hodisalarga xizmat ko'rsatishda bajarilayotgan dasturni olib qo'yish («uzish») va xizmat ko'rsatiladigan dasturni bajarish zarur, bunday hodisalar uzilishli hodisalar deb ataladi). Uzilishli hodisalarni aniqlashning oddiy usuli bo'lib dasturiy usul bilan yuzaga kelishini vaqti-vaqti bilan tekshirish hisoblanadi, bunda ikkita ahamiyatli kamchiliklar:

- hisoblash tizimining unumdorligini kamaytirish (dasturning ayrim qismi yuzaga keladigan hodisalar belgisini ortiqcha tanlab olish ostida keltirilgan);

- hodisalar yuzaga kelish vaqti va uni aniqlash vaqti o'rtasidagi kechikish mavjudligi (qator holatlarda, masalan, real vaqt tizimlarida, prinsipial mumkin emas).

Ko'rsatilgan kamchiliklarni oldini olish berilgan uzilishli hodisalarni apparatli aniqlash holatda mumkin, bunda uzilishli hodisalarga xizmat ko'rsatish tizimi yordamida amalga oshiriladi. Uzilishli hodisalarni aniqlashdan tashqari, uzilishli tizimga ulardan ustuvorligini aniqlash uchun hodisalar arbitraji yuklangan. Uzilishli hodisalar ham dasturiy va apparatli tabiatga ega bo'ladi:

- uzilishli hodisalar yuzaga kelishning dasturiy sabablariga mavjud bo'lmagan komandalarni bajarishga urinish (ya'ni KOP MKning

komandalar tizimida mavjud bo'lmagan) yoki yo'l qo'yilmaydigan ma'lumotlar bilan kamandalarni bajarish (masalan, nolga bo'lish holatida) kiradi;

- uzilishli hodisalar yuzaga kelishning apparatli sabablariga periferiya modullarining tayyorligi (masalan, ARO'ga oxirgi o'zgartirish, taymerning to'lishi, chaqiruvni ketma-ket port bo'yicha qabul qilish va h.) va MKga boshqaruv ob'ektidan kelib tushadigan signallarni (masalan, bajariluvchi mexanizmning ishlab ketish datchigidan ikkilik signalni) aktivizatsiyalash.

Uzilishli hodisalar miqdori cheklangan (tashqi uzilishli hodisalar miqdori MKning kiritish-chiqarish liniyalarining sonidan oshmasligi kerak), shuning uchun ular apparatli vositalarni aniqlash bo'lishi mumkin. Aks holda, ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha harakatlar MKning maqsadli funksiyalari bilan aniqlanadi va yetarlicha turli xil bo'lishi mumkin, qoiadaga ko'ra, dasturiy vositalar bilan xizmat ko'rsatiladi. Xotiradan to'g'ri foydalana olish rejimida apparatli harakatlarning oldindan berilgan sxemalar bo'yicha bajariladigan ma'lumotlarni jo'natish bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlar (masalan, analog-raqamli o'zgartirishning navbatdagi natijasini ma'lumotlar massivlarining berilgan katakchalariga joylashtirish) bundan mustasno (bunday tipga xizmat ko'rsatish moduli PTS - Peripher - tranzaksiyaning periferiya serveri).

Uzilishli hodisalarni aniqlash mohiyati quyidagi harakatlar to'g'ri keladi:

- uzilishli hodisalar dalilini aniqlash;
- unga ta'sir etish zaruriyatini aniqlash;
- unga muayyan ta'sir zarurligini o'rnatish (ya'ni potensial mumkin bo'lgan uzilishli hodisalardan barcha MKning maqsadli funksiyalarini amalga oshirish uchun zarur emas, masalan, ARO'dan uzilishlar talab etilmasligi mumkin);
- hodisalar arbitrajini bajarish (avvalgi uzilishli hodisalarga xizmat ko'rsatish vaqtida ushbu hodisalarning muhimlik bosqichiga muvofiq hodisalarning yangi uzilishlari yuzaga kelganda boshlangan xizmat ko'rsatish davom ettirilishi, yoxud yangisiga xizmat ko'rsatish uchun qayta ulangan hodisani to'xtatish kerak);
- dasturiy uontekst qayta ulanishini bajarish (uzilishli dastur holatini saqlash va adresi uzilishli hodisalarning ("uzilish vektori" yoki "qayta ishlashga kirish nuqtasi" deb ataladigan) tipiga avvaldan bir xil xizmat ko'rsatish dasturiga qayta ulash).

3. BIR KRISTALLI MIKROKONTROLLERLAR

3.1. PIC mikrokontrollerlari tarkibi, parametrlari va tashkillashtirish xususiyatlari

Ushbu MK lar kam energiya sarflanishi bilan farqlanadi. Zamonaviy MK lar foydalanuvchiga juda ko‘p imkoniyatlar yaratib beradi va quyidagi asosiy rejimlar bilan farqlanadi:

- aktiv rejim (run mode) – MK asosiy rejimi. Bu rejimda MK ishchi dasturni qo‘llab, hamma resurslari ishchi xolatda;

- kutish rejimi (Wait mode, idle mode yoki halt mode). Ushbu rejimda markaziy prosessor ishni to‘xtatadi, lekin pereferiya modullari boshqaruv ob’ektidan o‘z nazoratlarini to‘xtatmaydi. Zarur bo‘lganda pereferiya moduli signallari MK larni aktiv rejimga o‘tkazadi. Bunday xolatlar MK larni qayta yuklaganda yoki uzilishlarni tashkil qilganda xosil bo‘ladi. Kutish rejimida MK quvvati PWAIT 5-10 martaga pasayadi.

- To‘xtatish rejimi (stop mode). MK STOP

- Kiritish-chiqarish portlari.

Har bir MK bir qancha kiritish-chiqarish liniyalariga ega bo‘lib, ular ko‘p razryadli (8-razryadli) parallel kiritish chiqarish portlariga ulangan. MK xotirasida har bir kiritish-chiqarish portlari o‘z adreslariga ega. Kiritish-chiqarish portlari ma’lumot registrlariga murojaat komandalari xotira ma’lumotlariga beriladigan komandalar asosida beriladi.

Undan tashqari ko‘pchilik MK larda alohida port razryadlarini tekshirish va ularga murojaat qilish imkoniyatlari ham mavjud. MK qo‘llaniladigan uzellar funksiyalardan foydalanishga qarab quyidagi parallel portlarni ajratish mumkin:

1. Bir yo‘nalishli portlar, ma’lumotlarni faqat kiritish yoki faqat chiqarish uchun;

2. Ikki yo‘nalishli portlar, MK ni initsializatsiya qilish davrida aniqlanadigan kiritish yoki chiqarish;

3. Multipleks portlar. Portlarning alohida liniyalari MK ning birlashtirilgan pereferiya qurilmalari bilan birga, bulardan taymer, ASP, ketma-ket interfeys kontrollerlari ishlatiladi;


4. Kiritish-chiqarish bufer sxemotexnik boshqaruv dasturlanuvchi portlari.

Portlarning vazifasi vaqtinchalik MK larni ma'lum ob'ekt bilan aloqa o'rnatish uchun foydalaniladi.

Parallel portlar asosida MK va tashqi qurilmalar bilan ma'lumot almashish algoritmi 3 ta tip algoritmgiga ajratiladi:

1. Oddiy dasturiy kiritish-chiqarish;
2. Strobli kiritish-chiqarish;
3. Ma'lumot almashishni to'liq tasdiqlovchi kiritish-chiqarish rejimlari;

Garvard arxitekturasiga asoslangan bo'lib, ma'lumot shinalari va (OZU) ma'lumot xotirasi (kengligi 8-bit), dastur shinalari va dastur xotirasi 14-bit. Bunday arxitektura bit va bayt registr operatsiyalari yuqori tezlikda ishlashga imkon yaratadi [10]. O'tish komandalaridan tashqari hamma komandalar bir siklda bajariladi.



3.1- rasm. MK PICxxxxx struktura sxemasi

MK ikkita bankni tashkil qiladi:

- GPR-umumiy ishlatiladigan
- SFR-maxsus ishlatiladigan

UIRB to'g'ridan to'g'ri va bevosita adreslash usullari asosida foydalaniladi. Maxsus registrlar MK yadrosi va pereferiya modullarini boshqaradi. STATUS-registrida ALQ xolatlar bayroq registri bo'lib, u xolatlar yangilanish sabablarini ko'rsatadi.

Bit 7 IRP: Rezervlangan, 0 ga tenglik xolatini saqlash kerak

Bit 6 RP1: Rezervlangan, 0 ga tenglik xolatini saqlash kerak

Bit 5 RP0: ma'lumotlar xotirasi bankidan tanlash.

1 = Bank 1 (80h – FFh)

0 = Bank 0 (00h – 7Fh)

Bit 4 -TO: storajevoy taymer WDT bayrog'ining to'lib ketganligi

1 = POR qayta yangilanishi natijasida,

SLRWDT yoki SLEEP komandalarining bajarilishi

0 = to'lib ketganligida WDT

Bit 3 -PD: manba'dan uzilish bayrog'i detektori

1 = POR qatydan tiklanishi yoki SLRWDT komandasini bajarilishi

0 = SLEEP komandasini bajarilishi

Bit 2 Z: nolga tenglik bayrog'i

1 = arifmetik yoki logik operatsiyasining nollik natijasi

0 = arifmetik yoki logik operatsiyasining nolga teng emaslik natijasi

Bit 1 DC: o'nlik orttirmani uzatish

1 = kichik yarim baytdan uzatish

0 = kichik yarim baytdan uzatishlar qayd etilmagan

Bit 0 C: orttirmani uzatish

1 = katta bitdan uzatish

0 = katta bitdan uzatish qayd etilmagan

Registr OPTION REG

Registr OPTION REG bitlarni boshqarish tarkibiga ega bo'lib, o'qish va yozish kirishiga ega:

TMR0/WDT-signal bo'lgichlar

GP2/INT-tashqi uzilishlar aktiv fronti

TMR0-taymer

GPIO-kirish rezistori

Registr INTCON. Registr INTCON o'qish va yozish uchun ruxsat etilgan bo'lib, uzilishlarni tashkil qilish, to'lib ketish bayrog'i va bitlari tarkibiga ega. TMR0; GPIO chiqishlarida signal pog'onasini o'zgartirish; GP2/INT tashqi uzilishlar manba'si

Registr PIE1. Registr PIE1 o'qish va yozish uchun ruxsat etilgan bo'lib, uzilishlarni tashkil qilish, to'lib ketish bayrog'i va bitlari tarkibiga ega.

Registr PIR1. Registr PIR1 o'qish va yozish uchun ruxsat etilgan bo'lib, pereferiya modullari uzilishlari modullari tarkibiga ega

Registr PCON.Registr PCON –MK qayta tiklanish sabablari bayroq registri.

Registr PCLATH PCL .13-razryadli komanda xioblagichi registri PC bajarilayotgan instruksiya adresini ko'rsatadi. PC registrida bajarilayotgan xamma operatsiyalar qo'shimcha PCLATH registri orqali bajariladi. Stek. PIC12F629/675 8-pog'onali 13-razryad apparat stekga ega.

Stekdan ma'lumotlarni o'qish va yozish RETURN, RETLW, RETFUE komandalar asosida bajariladi .

Kiritish/chiqarish portlari GPIO.PIC12F629/675 mikrokontrollerlarida 6 ta kiritish/chiqarish port kanallari mavjud. Ba'zi bir kanallar MK ning qo'shimcha pereferiya modullari bilan multipleks bo'lgani uchun kiritish va chiqarish uchun foydalanilmaydi.

Registrlar GPIO va TRISIO. GPIO – 6-razryadli kiritish chiqarish porti. GPIO hamma kanallari TRISIO registriga mos bit yo'nalishlariga ega bo'lib,o'z navbatida kanallarni kiritish yoki chiqarishga moslashtiradi. Ma'lumotlar kerakli bo'limdan o'qib olinadi va taxlili qilingan natija chiqishga uzatiladi.

EEPROM ma'lumot xotirasi. EEPROMdan ma'lumotlarni o'qish va yozish baytma-bayt bajariladi.

EEDATA registri 8-razryadli o'qish va yozishni saqlaydi.EEADR esa EEPROMning xotira adres yacheykalarini saqlaydi [12]. PIC12F675 MKlari 128 bayt ma'lumot xotirasi bo'lib uning diapazoni 00h-7Fh.

PWRT_ manba'ga ulanish taymeri.


POR VA BOR qayta tiklanish sxemalari signallari asosida 72 ms ga manba'ga ulanish taymerlarini ta'minlash.

OST-generator ishga tushirish taymeri

3.2. PIC mikrokontrollerlari apparat vositalarining strukturasi va imkoniyatlari

Microchip Technology firmasi tomonidan ishlab chiqarilayotgan PIC16FXX integral mikrosxemalar oilasi o'zida RISC arxitekturali sakkiz razryadli mikrokontrollerlardan iborat. Bu mikroprotessorlar oilasi past energiya sarfi, komandalarni bajarish tezligi, past narhi bilan boshqalardan ajraladi. Mikrokontrollerlar o'rnatilgan PZU lardan tuzilgan bo'lib, ular OZU ma'lumotlari va energiyaga bog'liq bo'lgan dasturlarni saqlash uchun mo'ljallangan. Ushbu oilaning eng oddiy vakillaridan biri bu PIC16F84 mikrokontrolleridir. Kontroller KMOP

texnologiyasi bo'yicha tuzilgan bo'lib, ichki 1Kx14 bit electron qayta dasturlovchi PZU (EEPROM) dan iboratdir, bu qurilma bajarilayotgan dastur va 64 baytli energiyaga bog'liq OZU ma'lumotlarining saqlanishi uchun mo'ljallangan. Kontoller bajaradigan komandalar, kengligi 14 bit ikki so'zdan iborat bo'ladi va bir sikl davomida bajariladi (400 ns. Sinxronlashning 10 MgH chastotasida), bunda uzatish boshqaruvining komandalari ikki siklda bajariladi. Siklning davomiyligi taktli chastotaning to'rtta siklidan tashkil topadi. Kontroller 0 dan 10 MgH chastotali diapazonda ishlash qobiliyatini saqlab qoladi. Kontroller 4 manbadan uzilishni ta'minlaydi va ularning sakkiz darajali apparat oqimini ta'minlaydi. 8 bitli taymer/schetchik va 8 bitli dasturlanuvchi boshlang'ich ajratuvchiga ega. Periferik qurilmalarni ulash uchun (datchik, klaviatura, ijrochi mexanizmlar) uchun kontrollerning 13 ta liniyasi bor, ularning har biri dastur jihatidan axborotni kiritish va chiqarishga sozlangan. Bu liniyalarning yuqori quvvar qobiliyati (20mA) bo'lib, bu kirish va chiqish drayverlarining sxemali realizatsiyasini osonlashtiradi. Qurilmalarning ishlab chiqaruvchilari bunday kontrollerlarning asosida assembler yordamida tutib turiladi, bundan tashqari dasturlovchi va dasturli simulyator (PIC Simulator IDE) bilan tutib turiladi, bu esa o'z navbatida dasturlar asozlanishini alamga oshirish va kontrollerning portlariga ulangan tashqi qurilmalarning olib borilishini modellashtiradi.



3.2- rasm. Mikrokontrollerning funktsional sxemasi

3.2- rasmdagi sxemada quyidagi ko'rsatgichlar keltirilgan: OSC1 va OSC2 bo'yicha chiqish nuqtalari kvartslı rezonatorning yoki RC-zanjir, yoki taktli impulslar generatorining ulanishi uchun mo'ljallangan RA0-RA4 chiqishlari PORT A ning razryadlarini hosil qiladi. TOSC1 ham taymer/hisoblagichning kirish nuqtasi kabi ishlatilishi mumkin. RB0-RB7 chiqish nuqtalari B PORT B ning razryadlari hisoblanadi. INT- tashqi ulanishning kirishi. RB4, RB5 signalning o'zgarishi gacha

ulanish kirishi o'rnida ishlatilishi mumkin. RB6 - signalning o'zgarishi gacha ulanish kirishi o'rnida ishlatilishi mumkin yoki kontrollerning dasturlanishida taktli signalning kirishi or'nida ishlatilishi mumkin. RB7 – signalning o'zgarishi bo'yicha uzatishning kirish nuqtasi yoki ma'lumotlarni dasturlash vaqtidagi signal/ MCLR – tashlash signalining kirishi yoki dasturlash vaqtidagi kuchlanish. VDD – energiya manbasining musbat chiqishi. GND - umumiy chiqish

3.3. PIC mikrokontrollerlari buyruqlar tizimi va maxsus funksiyalari

3.1.- Jadval.

Arifmetik va mantiqiy instruksiyalar

Mnemonika	Operanda	Tasviri	Operasiya	Bayroq	Cikl
ADD	<u>Rd</u> , <u>Rr</u>	O'tkazishsiz umumlashtirish	$Rd = Rd + Rr$	Z,C,N,V,H,S	1
ADC	<u>Rd</u> , <u>Rr</u>	O'tkazishli umumlashtirish	$Rd = Rd + Rr + C$	Z,C,N,V,H,S	1
SUB	<u>Rd</u> , <u>Rr</u>	O'tkazishsiz hisoblash	$Rd = Rd - Rr$	Z,C,N,V,H,S	1
SUBI	<u>Rd</u> , <u>K8</u>	Konstantani hisoblash	$Rd = Rd - K8$	Z,C,N,V,H,S	1
SBC	<u>Rd</u> , <u>Rr</u>	O'tkazishli hisoblash	$Rd = Rd - Rr - C$	Z,C,N,V,H,S	1
SBCI	<u>Rd</u> , <u>K8</u>	O'tkazishli konstantani hisoblash	$Rd = Rd - K8 - C$	Z,C,N,V,H,S	1
AND	<u>Rd</u> , <u>Rr</u>	Mantiqiy Va	$Rd = Rd \cdot Rr$	Z,N,V,S	1
ANDI	<u>Rd</u> , <u>K8</u>	Konstantali mantiqiy Va	$Rd = Rd \cdot K8$	Z,N,V,S	1
OR	<u>Rd</u> , <u>Rr</u>	Mantiqiy Yoki	$Rd = Rd \vee Rr$	Z,N,V,S	1
ORI	<u>Rd</u> , <u>K8</u>	Konstantali mantiqiy Yoki	$Rd = Rd \vee K8$	Z,N,V,S	1
EOR	<u>Rd</u> , <u>Rr</u>	Mantiqiy chiqaruvchi Yoki	$Rd = Rd \oplus Rr$	Z,N,V,S	1

COM	<u>Rd</u>	Pobit invertsiyasi	$Rd = FF - Rd$	Z,C,N,V,S	1
NEG	<u>Rd</u>	Belgining o'zgarishi (qo'shimcha kod)	$Rd = \$00 - Rd$	Z,C,N,V,H,S	1
SBR	<u>Rd</u> , <u>K8</u>	Registrda bit ni o'rnatish	$Rd = Rd \vee K8$	Z,C,N,V,S	1
CBR	<u>Rd</u> , <u>K8</u>	Registrda bitlarni olib tashlash	$Rd = Rd (\$FF - K8)$	Z,C,N,V,S	1
INC	<u>Rd</u>	Registr belgisini inkrementasiyasi	$Rd = Rd + 1$	Z,N,V,S	1
DEC	<u>Rd</u>	Registr belgisini diskrementasiyasi	$Rd = Rd - 1$	Z,N,V,S	1
TST	<u>Rd</u>	Nol yoki manfiylikka tekshirish	$Rd = Rd / Rd$	Z,C,N,V,S	1
CLR	<u>Rd</u>	Registrni tozalash	$Rd = 0$	Z,C,N,V,S	1
SER	<u>Rd</u>	Registrni ornatish	$Rd = \$FF$	None	1
ADIW	<u>Rdl</u> , <u>K6</u>	Konstanta va so'zni kiritish	$Rdh:Rdl = Rdh:Rdl + K6$	Z,C,N,V,S	2
SBIW	<u>Rdl</u> , <u>K6</u>	So'zdan konstantani olib tashlash	$Rdh:Rdl = Rdh:Rdl - K6$	Z,C,N,V,S	2
MUL	<u>Rd</u> , <u>Rr</u>	Belgisiz sonlarni ko'paytirish	$R1:R0 = Rd * Rr$	Z,C	2
MULS	<u>Rd</u> , <u>Rr</u>	Belgili sonlarni ko'paytirish	$R1:R0 = Rd * Rr$	Z,C	2
MULSU	<u>Rd</u> , <u>Rr</u>	Belgili son va belgisiz sonni ko'paytirish	$R1:R0 = Rd * Rr$	Z,C	2

FMUL	<u>Rd</u> , <u>Rr</u>	Belgisiz kasrli sonlarni ko'paytirish	$R1:R0 = (Rd * Rr) \ll 1$	Z,C	2
FMULS	<u>Rd</u> , <u>Rr</u>	Belgili sonlarni ko'paytirish	$R1:R0 = (Rd * Rr) \ll 1$	Z,C	2
FMULSU	<u>Rd</u> , <u>Rr</u>	Belgili kasr son va belgisiz sonni ko'paytirish	$R1:R0 = (Rd * Rr) \ll 1$	Z,C	2

Bo'linish instruksiyalari

Mnemonika	Operanda	Tasviri	Operasiya	Bayroq	Sikl
RJMP	k	Nisbiy o'tish	$PC = PC + k + 1$	None	2
IJMP	Yo'q	(Z) ga bilsovita o'tish	$PC = Z$	None	2
EIJMP	Yo'q	(Z) ga bilvosita kengaygan o'tish	$STACK = PC + 1,$ $PC(15:0) = Z,$ $PC(21:16) = EIND$	None	2
JMP	<u>k</u>	O'tish	$PC = k$	None	3
RCALL	<u>k</u>	Dasturchanin g nisbiy chaqiruvi	$STACK = PC + 1,$ $PC = PC + k + 1$	None	3/4*
ICALL	Yo'q	(Z) ning bilvosita chariruvi	$STACK = PC + 1,$ $PC = Z$	None	3/4*
EICALL	Yo'q	(Z) ning bilvosita kengaygan chaqiruvi	$STACK = PC + 1,$ $PC(15:0) = Z,$ $PC(21:16) = EIND$	None	4*
CALL	<u>k</u>	Dasturchanin g chaqiruvi	$STACK = PC + 2,$ $PC = k$	None	4/5*

RET	Yo‘q	Dasturchadan qaytish	PC = STACK	None	4/5*
RETI	Yo‘q t	Uzilishdan qaytish	PC = STACK	I	4/5*
CPSE	<u>Rd</u> , <u>Rr</u>	Teng bo‘lsa solishtirish va o‘tkazish	if (Rd ==Rr) PC = PC 2 or 3	None	1/2/ 3
CP	<u>Rd</u> , <u>Rr</u>	Slishtirish	Rd -Rr	Z,C,N,V,H, S	1
CPC	<u>Rd</u> , <u>Rr</u>	O‘tishli solishtirish	Rd - Rr - C	Z,C,N,V,H, S	1
CPI	<u>Rd</u> , <u>K8</u>	Konstanta bilan solishtirish	Rd - K	Z,C,N,V,H, S	1
SBRC	<u>Rr</u> , <u>b</u>	O‘tkazish agar registrdagi bit toza bo‘lsa	if(Rr(b)==0) PC = PC + 2 or 3	Yo‘q	1/2/ 3
SBRS	<u>Rr</u> , <u>b</u>	O‘tkazish agar registrdagi bit o‘rnatilgan bo‘lsa	if(Rr(b)==1) PC = PC + 2 or 3	Yo‘q	1/2/ 3
SBIC	<u>P</u> , <u>b</u>	O‘tkazish agar portdagi bit toza bo‘lsa	if(I/O(P,b)==0) PC = PC + 2 or 3	Yo‘q	1/2/ 3
SBIS	<u>P</u> , <u>b</u>	O‘tkazish agar portdagi bit o‘rnatilgan bo‘lsa	if(I/O(P,b)==1) PC = PC + 2 or 3	Yo‘q	1/2/ 3
BRBC	<u>s</u> , <u>k</u>	O‘tish agar SREG dagi bayroq toza bo‘lsa	if(SREG(s)==0) PC = PC + k + 1	Yo‘q	1/2

BRBS	<u>s</u> , <u>k</u>	O'tish agar SREG dagi bayroq o'rnatilgan bo'lsa	if(SREG(s)==1) PC = PC + k + 1	Yo'q	1/2
BREQ	<u>k</u>	O'tish agar teng bo'lsa	if(Z==1) PC = PC + k + 1	Yo'q	1/2
BRNE	<u>k</u>	O'tish agar teng bo'lmasa	if(Z==0) PC = PC + k + 1	Yo'q	1/2
BRCS	<u>k</u>	O'tish agar o'tkazish o'rnatilgan bo'lsa	if(C==1) PC = PC + k + 1	Yo'q	1/2
BRCC	<u>k</u>	O'tish agar o'tkazish toza bo'lsa	if(C==0) PC = PC + k + 1	Yo'q	1/2
BRSH	<u>k</u>	O'tish agar tegn yoki yuqori bo'lsa	if(C==0) PC = PC + k + 1	Yo'q	1/2
BRLO	<u>k</u>	Kam bo'lsa o'tish	if(C==1) PC = PC + k + 1	Yo'q	1/2
BRMI	<u>k</u>	Minus bo'lsa o'tish	if(N==1) PC = PC + k + 1	Yo'q	1/2
BRPL	<u>k</u>	Plyus bo'lsa o'tish	if(N==0) PC = PC + k + 1	Yo'q	1/2
BRGE	<u>k</u>	Yuqori yoki teng bo'lsa o'tish (belgili)	if(S==0) PC = PC + k + 1	Yo'q	1/2
BRLT	<u>k</u>	Past bo'lsa o'tish (belgili)	if(S==1) PC = PC + k + 1	Yo'q	1/2
BRHS	<u>k</u>	Agar ichki o'tishni bayrog'i o'rnatilgan bo'lsa	if(H==1) PC = PC + k + 1	Yo'q	1/2

BRHC	<u>k</u>	Agar ichki o'tishni bayrog' toza bo'lsa	if(H==0) PC = PC + k + 1	Yo'q	1/2
BRTS	<u>k</u>	O'tish agar T bayrog'i o'rnatilgan bo'lsa	if(T==1) PC = PC + k + 1	Yo'q	1/2
BRTC	<u>k</u>	O'tish agar T bayrog'i toza bo'lsa	if(T==0) PC = PC + k + 1	Yo'q	1/2
BRVS	<u>k</u>	O'tish agar to'ldirish bayrog'i o'rnatilgan bo'lsa	if(V==1) PC = PC + k + 1	Yo'q	1/2
BRVC	<u>k</u>	O'tish agar to'ldirish bayrog'i toza bo'lsa	if(V==0) PC = PC + k + 1	Yo'q	1/2
BRIE	<u>k</u>	O'tish agar uzishlarga ruhsat bo'lsa	if(I==1) PC = PC + k + 1	Yo'q	1/2
BRID	<u>k</u>	O'tish agar uzishlarlar man qilingan bo'lsa	if(I==0) PC = PC + k + 1	Yo'q	1/2

Ma'lumotlarga operatsion kirish uchun sikllar soni ma'lumotlarning ichki xotirasiga kirish sharti bilan ko'rsatiladi va tashqi OZU bilan ishlaganda korrekt bo'lmaydi. CALL, ICALL, EICALL, RCALL, RET va RETI instruksiyalari uchun uchta sikl qo'shimcha ikkita siklni 16 bitli PC kontrollerlariga qo'shish kerak (128KB dasturlar hotirasi). Xotirasi 128 KB dan ortiq bo'lgan dasturlar uchun beshta sikl va yana har bir kutish uchun uchta sikl qo'shing.

Ma'lumotlarnig uzatish instruktsiyalari

Mnemonika	Operand	Tavsifi	Operatsiya	Flag	Sikl
MOV	<u>Rd</u> , <u>Rr</u>	Registrga nusxalash	$Rd = Rr$	Yo'q	1
MOVW	<u>Rd</u> , <u>Rr</u>	Registerlar juftini nusxalash	$Rd+1:Rd = Rr+1:Rr, r,d$ even	Yo'q	1
LDI	<u>Rd</u> , <u>K8</u>	Konstantani yuklash	$Rd = K$	Yo'q	1
LDS	<u>Rd</u> , <u>k</u>	To'g'ri yuklash	$Rd = (k)$	Yo'q	2*
LD	<u>Rd</u> , <u>X</u>	Bilvosita yuklash	$Rd = (X)$	Yo'q	2*
LD	<u>Rd</u> , <u>X+</u>	Post-inkrementli bilvosita yuklash	$Rd = (X),$ $X=X+1$	Yo'q	2*
LD	<u>Rd</u> , <u>-X</u>	Pre-dekrementli bilvosita yuklash	$X=X-1, Rd =$ (X)	Yo'q	2*
LD	<u>Rd</u> , <u>Y</u>	Bilvosita yuklash	$Rd = (Y)$	Yo'q	2*
LD	<u>Rd</u> , <u>Y+</u>	Post-inkrementli bilvosita yuklash	$Rd = (Y),$ $Y=Y+1$	Yo'q	2*
LD	<u>Rd</u> , <u>-Y</u>	Pre-dekrementli bilvosita yuklash	$Y=Y-1, Rd =$ (Y)	Yo'q	2*
LDD	<u>Rd</u> , <u>Y+q</u>	Egallashli bilvosita yuklash	$Rd = (Y+q)$	Yo'q	2*
LD	<u>Rd</u> , <u>Z</u>	Bilvosita yuklash	$Rd = (Z)$	Yo'q	2*
LD	<u>Rd</u> , <u>Z+</u>	Post-inkrementli bilvosita yuklash	$Rd = (Z),$ $Z=Z+1$	Yo'q	2*
LD	<u>Rd</u> , <u>-Z</u>	Pre-dekrementli bilvosita yuklash	$Z=Z-1, Rd =$ (Z)	Yo'q	2*
LDD	<u>Rd</u> , <u>Z+q</u>	Egallashli bilvosita yuklash	$Rd = (Z+q)$	Yo'q	2*
STS	<u>k</u> , <u>Rr</u>	To'g'ri saqlash	$(k) = Rr$	Yo'q	2*
ST	<u>X</u> , <u>Rr</u>	Bilvosita saqlash	$(X) = Rr$	Yo'q	2*
ST	<u>X+</u> , <u>Rr</u>	Post-inkremetnli bilvosita saqlash	$(X) = Rr,$ $X=X+1$	Yo'q	2*
ST	<u>-X</u> , <u>Rr</u>	Pre-dekrementli bilvosita saqlash	$X=X-1, (X)=Rr$	Yo'q	2*

ST	<u>Y</u> , <u>Rr</u>	Bilvosita saqlash	$(Y) = Rr$	Yo‘q	2*
ST	<u>Y+</u> , <u>Rr</u>	Post-inkremetnli bilvosita saqlash	$(Y) = Rr,$ $Y=Y+1$	Yo‘q	2
ST	<u>-Y</u> , <u>Rr</u>	Pre-dekremetnli bilvosita saqlash	$Y=Y-1, (Y) = Rr$	Yo‘q	2
ST	<u>Y+q</u> , <u>Rr</u>	Egallashli bilvosita saqlash	$(Y+q) = Rr$	Yo‘q	2
ST	<u>Z</u> , <u>Rr</u>	Bilvosita saqlash	$(Z) = Rr$	Yo‘q	2
ST	<u>Z+</u> , <u>Rr</u>	Post-inkremetnli bilvosita saqlash	$(Z) = Rr,$ $Z=Z+1$	Yo‘q	2
ST	<u>-Z</u> , <u>Rr</u>	Pre-dekrementli bilvosita saqlash	$Z=Z-1, (Z) = Rr$	Yo‘q	2
ST	<u>Z+q</u> , <u>Rr</u>	Egallashli bilvosita saqlash	$(Z+q) = Rr$	Yo‘q	2
LPM	Yo‘q	Dasturli hotiradan yuklash	$R0 = (Z)$	Yo‘q	3
LPM	<u>Rd</u> , <u>Z</u>	Dasturli hotiradan yuklash	$Rd = (Z)$	Yo‘q	3
LPM	<u>Rd</u> , <u>Z+</u>	Post-inkrementli dasturli hotiradan yuklash	$Rd = (Z),$ $Z=Z+1$	Yo‘q	3
ELPM	Yo‘q	Dasturli hotiradan kengaygan yuklash	$R0 = (RAMPZ:Z)$	Yo‘q	3
ELPM	<u>Rd</u> , <u>Z</u>	Dasturli hotiradan kengaygan yuklash	$Rd = (RAMPZ:Z)$	Yo‘q	3
ELPM	<u>Rd</u> , <u>Z+</u>	Post-inkrementli dasturli hotiradan kengaygan yuklash	$Rd = (RAMPZ:Z), Z = Z+1$	Yo‘q	3
SPM	Yo‘q	Dasturli hotiradan saqlash	$(Z) = R1:R0$	Yo‘q	-
ESPM	Yo‘q	Dasturli hotiradan kengaygan saqlash	$(RAMPZ:Z) = R1:R0$	Yo‘q	-
IN	<u>Rd</u> , <u>P</u>	Portni o‘qish	$Rd = P$	Yo‘q	1
OUT	<u>P</u> , <u>Rr</u>	Portga saqlash	$P = Rr$	Yo‘q	1

PUSH	<u>Rr</u>	Registrga ma'lumotlarni kiritish	STACK = Rr	Yo'q	2
POP	<u>Rd</u>	Registrdan ma'lumotlarni chiqarish	Rd = STACK	Yo'q	2

Ma'lumotlarga operatsion kirish uchun sikllar soni ma'lumotlarning ichki hotirasiga kirish sharti bilan ko'rsatiladi va tashqi OZU bilan ishlaganda korrekt bo'lmaydi. LD, ST, LDD, STD, LDS, STS, PUSH va POP instruktsiyalari uchun bitta siklni qo'shish kerak.

Bitlar bilan ishlash instruktsiyalari

Mnemonika	Operanda	Tasviri	Operatsiya	Bayroq	Sikl
LSL	<u>Rd</u>	Chapga mantiqiy burilish	$Rd(n+1)=Rd(n)$ $Rd(0)=0,$ $C=Rd(7)$	Z,C,N, V,H,S	1
LSR	<u>Rd</u>	O'ngga mantiqiy burilish	$Rd(n)=Rd(n+1)$ $Rd(7)=0,$ $C=Rd(0)$	Z,C,N,V,S	1
ROL	<u>Rd</u>	C orqali siklli chap tomonga burilish	$Rd(0)=C,$ $Rd(n+1)=Rd(n)$ $C=Rd(7)$	Z,C,N, V,H,S	1
ROR	<u>Rd</u>	C orqali siklli o'ng tomonga burilish	$Rd(7)=C,$ $Rd(n)=Rd(n+1)$ $C=Rd(0)$	Z,C,N,V,S	1
ASR	<u>Rd</u>	O'ng tarafga arifmetik burilish	$Rd(n)=Rd(n+1)$ $n=0,\dots,6$	Z,C,N,V,S	1
SWAP	<u>Rd</u>	Tetradlarning qayta joylashtirish Perestanovka tetrad	$Rd(3..0) =$ $Rd(7..4),$ $Rd(7..4) =$ $Rd(3..0)$	Yo'q	1

BSET	<u>s</u>	Bayroqni oʻrnatish	SREG(s) = 1	SREG(s)	1
BCLR	<u>s</u>	Bayroqni tozalash	SREG(s) = 0	SREG(s)	1
SBI	<u>P,b</u>	Portda bitni oʻrnatish	I/O(P,b) = 1	Yoʻq	2
CBI	<u>P,b</u>	Portdagi bitni tozalash	I/O(P,b) = 0	Yoʻq	2
BST	<u>Rr,b</u>	Registrdan T ga bitni koʻchirish	T = Rr(b)	T	1
BLD	<u>Rd,b</u>	T dan registrga bitni yuklash	Rd(b) = T	Yoʻq	1
SEC	Yoʻq	Koʻchish bayrogʻini oʻrnatish	C = 1	C	1
CLC	Yoʻq	Koʻchish bayrogʻini tozalash	C = 0	C	1
SEN	Yoʻq	Manfiy raqamli bayroqni oʻrnatish	N = 1	N	1
CLN	Yoʻq	Manfiy raqamli bayroqni tozalash	N = 0	N	1
SEZ	Yoʻq	Noldan bayroqni oʻrnatish	Z = 1	Z	1
CLZ	Yoʻq	Bayroqni noldan tozalash	Z = 0	Z	1
SEI	Yoʻq	Uzilishlar bayrogʻini oʻrnatish	I = 1	I	1


CLI	Yo'q	Uzilishlar bayrogini tozalash	$I = 0$	I	1
SES	Yo'q	Sonli belgili bayroqni o'rnatish	$S = 1$	S	1
CLN	Yo'q	Sonli belgili bayroqni tozalash	$S = 0$	S	1
SEV	Yo'q	To'ldirish bayrog'ini o'rnatish	$V = 1$	V	1
CLV	Yo'q	To'ldirish bayrogini tozalash	$V = 0$	V	1
SET	Yo'q	T bayrog'ini o'rnatish	$T = 1$	T	1
CLT	Yo'q	T bayrog'ini tozalash	$T = 0$	T	1
CLH	Yo'q	Ichki ko'chish bayrogini tozalash	$H = 0$	H	1
NOP	Yo'q	Operatsiya Yo'q	Yo'q	Yo'q	1
SLEEP	Yo'q	Uhlash (energiya kamaytirish)	Instruktsiya tasvirini ko'ring	Yo'q	1

3.4. AVR mikrokontrollerlari tarkibi, parametrlari va tashkillashtirish xususiyatlari

AVR mikrokontrollerlari 1990 yillarning oxirida paydo bo'lgan. Kundan kunga ularning turli xil turlari paydo bo'layapti va keng ommaga taqdim qilinayapti. Hozirgi davrda bir turdagi arxitekturaga ega

mikrokontrollerlar turlari AVR mikrokontrollerlari mavjud bo‘lib, ular quyidagi oilaga mansub:

- Classic AVR (ishlab chiqarishdan olib tashlanyapti);
- Tiny AVR;
- Mega AVR;
- Mega AVR maxsus qo‘llanishlar uchun.



3.3- rasm. AVR-mikrokontrolleri protsessorli yadrosi arxitekturasi


Mikrokontroller oilasi Tiny chegaralangan pereferiyaga ega bo‘lib, katta bo‘lmagan dasturiy va ma‘lumot xotirasiga ega.

Mikrokontrollerlar oilasiga mansub Mega mikrokontrollerlari rivojlangan pereferiyaga ega bo‘lib, shu oilaga mansub bo‘lgan MK lar uchun nisbatan keng ma‘lumot va dasturiy xotiraga ega. Ular mobil telefonlarda, CD-ROM/DVD-ROM uchun foydalaniladi.

AVR-mikrokontrollerlar protsessorli yadrosi (CPU) (1.1-rasm) da ko‘rsatilganidek RISC-arxitekturasi mansub bo‘lib (enhanced RISC), mikrokontrollerlar ish tezligini oshirishda foydalaniladi.

Arifmetik-mantiqiy qurilma (AMQ)da hisob amallari bajariladi, ular bevosita 32 ishchi registrga murojaat etadi. Shuning uchun AMQ bir takt ichida vazifalarni bajaradi.

Undan tashqari har bir komanda bir xotira yacheykasini egallaydi. AVR mikrokontrollerlarida Garvard arxitekturasi qoʻllaniladi. Bunday tashkillashtirish bir vaqt ichida dasturiy xotira va maʼlumot xotirasi bilan ishlash imkoniyatini yaratadi.



3.4– rasm. AVR- Mega mikrokontrollerlari xotira kartasi

Maʼlumot shinalarining boʻlinishi turli xotira uchun turlicha razryadlar va adreslash usullari bilan farqlanadi. Ikki pogʻonali konveyer usuli (bir komanda bajarilayotganda parallel ravishda ikkinchi komanda tanlanib dekoderlanadi) ushbu arxitektura 1 MGs takt chastotada 1 MIPS operatsiyani bajarish imkoniyatini beradi.

AVR Mega oilasiga mansub mikrokontrollerlar xarakteristikasi:

- FLASH-dasturiy xotira sigʻimi 8 dan 256 Kbayt (oʻchirib yozish sikli 10 000);
- operativ xotira (statik OXQ) sigʻimi 512 bayt dan 8 Kbayt;
- maʼlumot xotirasi (EEPROM) sigʻimi 256 bayt dan Kbaytgacha (oʻchirib yozish sikli 100 000);
- oʻqishdan himoyalaniish sikli imkoniyati;
- interfeyslar SPI va JTAG orqali dasturlash imkoniyatining mavjudligi;

- o‘z o‘zini dasturlash imkoniyatning mavjudligi;
- turli usulda sinxronizatsiyalash;
- o‘rnatilgan RS-generator;
- bir qancha kam manba’ talabligi;
- qo‘riqchi taymer mavjudligi;
- dasturiy takt generator chastotasini pasayishi.

Periferiya moduli.

Mikrokontroller AVR Mega 23 dan 86 gacha kiritish chiqarish liniyalariga ega. Undan tashqari pereferiya qurilmalariga ega:

- bir yoki ikkita 8-bitli taymer/hisoblagich;
- bittadan 4 gacha 16-bit taymer/hisoblagich;
- bir- ikki kanalli generatorlar 8-bitli ShIM-signal ;
- uch- va 4 kanalli generatorlar ShIM;
- analog komparator;
- ko‘p kanalli 10-bitli ARO‘ ;
- ketma-ket sinxron interfeys SPI;
- ketma-ket ikki yo‘nalishli interfeys TWI ;
- birdan 4 gacha to‘liq dupleksli universal sinxron/asinxron qabul qilib-uzatgich (USART);

Dastur xotirasi (sig‘imi 8 dan 256 Kbayt) mikrokontroller ish jarayonini boshqarishda foydalaniladigan komandalarni saqlashda foydalaniladi. Dastur xotirasidan ma’lumot xotirasiga baytlarni uzatishda maxsus komanda — LPM foydalaniladi.

3.2- jadval

ATmega8535 mikrokontrolleri kiritish chiqarish registrlari

Nomi	Adres	Funksiya
SREG	\$3F (\$5F)	Xolat registri
SPH	\$3E (\$5E)	Stek ko‘rsatkichi, katta bayt
SPL	\$3D (\$5D)	Stek ko‘rsatkichi, kichik bayt
OCR0	\$3C (\$5C)	Taymer/hisoblagich TO mosligi
GICR	\$3B (\$5B)	Uzilishlarni boshqarish registri
GIFR	\$3A (\$5A)	Uzilishlar umumiy bayroq registri
TIMSK	\$39 (\$59)	Taymer/hisoblagich uzilishlari bayroq registri
TIFR	\$38 (\$58)	Taymer/hisoblagich uzilishlari bayroq registri


SPMCR	\$37 (\$57)	Dastur xotirasiga operatsiyalarni yozish xolatini boshqarish registri.
TWCR	\$36 (\$56)	Boshqarish registri TWI
MCUCR	\$35 (\$55)	Mikrokontrollerni boshqarish registri
MCUC SR	\$34 (\$54)	Mikroonroller xolati va boshqarish registri
TCCR0	\$33 (\$53)	Taymer/hisoblagichni TO boshqarish registri
TCNT0	\$32 (\$52)	Taymer/hisoblagich TO hisob registri
OSCCAL	\$31 (\$51)	Takt generator kalibrovka registri
SFIOR	\$30 (\$50)	Maxsus registr funksiyasi
TCCR1A	\$2F (\$4F)	Registr A taymer/hisoblagich T1 boshqarish
TCCR1B	\$2E (\$4E)	Registr V taymer/hisoblagich T1 boshqarish
TCNT1H	\$2D (\$4D)	Taymer/hisoblagich T1, katta bayt xisob registri
TCNT1L	\$2C (\$4C)	Taymer/hisoblagich T1, kichik bayt xisob registri
OCR1AH	\$2B (\$4B)	Registr A taymer/hisoblagich T1, katta bayt mosligi
OCR1AL	\$2A (\$4A)	Registr A taymer/hisoblagich T1, katta bayt mosligi
OCR1BH	\$29 (\$49)	Registr V taymer/hisoblagich T1, katta bayt mosligi
OCR1BL	\$28 (\$48)	Registr A taymer/hisoblagich T1, kichik bayt mosligi
ICR1H	\$27 (\$47)	Taymer/hisoblagich T1, katta bayt egallash
ICR1L	\$26 (\$46)	Taymer/hisoblagich T1, kichik bayt egallash
TCCR2	\$25 (\$45)	Taymer/hisoblagich T2 boshqarish registri
TCNT2	\$24 (\$44)	Taymer/hisoblagich T2 xisob registri
OCR2	\$23 (\$43)	Taymer/hisoblagich T2 moslik registri
ASSR	\$22 (\$42)	Asinxron rejim registr xolati
WDTCR	\$21 (\$41)	Qo‘riqchi taymer boshqarish registri
UBRRH	\$20 (\$40)	Uzatish registri USART, katta bayt

UCSRC		Boshqarish registri va xolati USART
EEARH	\$1F (\$3F)	Adres registri EEPROM, katta bayt
EEARL	\$1E (\$3E)	Adres registri EEPROM, kichik bayt
EEDR	\$1D (\$3D)	Ma'lumot registri EEPROM
EECR	\$1C (\$3C)	Boshqarish registri EEPROM
PORTA	\$1B (\$3B)	Port A ma'lumot registri
DDRA	\$1A (\$3A)	Port A ga ma'lumot yo'naltirish registri
PINA	\$19 (\$39)	Port A chiqishlari
PORTB	\$18 (\$38)	Port V ma'lumot registrlari
DDRB	\$17 (\$37)	Port V ma'lumot yo'naltirish registri
PINB	\$16 (\$36)	Port V chiqishlari
PORTC	\$15 (\$35)	S port ma'lumot registri
DDRC	\$14 (\$34)	S port ma'lumot registri yo'naltirish
PINC	\$13 (\$33)	S port chiqishlari
PORTD	\$12 (\$32)	D port ma'lumot registri
DDRD	\$11 (\$31)	D port ma'lumot registri yo'naltirish
PIND	\$10 (\$30)	Port D chiqishlari
SPDR	\$0F (\$2F)	SPI ma'lumot registri
SPSR	\$0E (\$2E)	SPI xolatlar registri
SPCR	\$0D (\$2D)	SPI boshqarish registri
UDR	\$0C (\$2C)	USART ma'lumot registri
UCSRA	\$0B (\$2B)	Registr A xolat va boshqarish USART
UCSRB	\$0A (\$2A)	Registr V xolat va boshqarish USART
UBRR1	\$09 (\$29)	Uzatish tezligi registri USART, kichik bayt
ACSR	\$08 (\$28)	Analog komparator xolati va boshqarish registri
ADMUX	\$07 (\$27)	ASP multipleksorini boshqarish registri
ADCSRA	\$06 (\$26)	Registr A boshqarish va xolati ASP
ADCH	\$05 (\$25)	ASP ma'lumot registri, katta bayt
ADCL	\$04 (\$24)	ASP ma'lumot registri, kichik bayt
TWDR	\$03 (\$23)	Ma'lumot registri TWI
TWAR	\$02 (\$22)	Adres registri TWI
TWSR	\$01 (\$21)	Xolat registri TWI
TWBR	\$00 (\$20)	Uzatish registri TWI

Mikrokontrollerlar oilasiga mansub Mega mikrokontrollerlari rivojlangan pereferiyaga ega bo'lib, shu oilaga mansub bo'lgan MK lar

uchun nisbatan keng ma'lumot va dasturiy xotiraga ega. Ular mobil telefonlarda, CD-ROM/DVD-ROM uchun foydalaniladi.

3.5. ATmega128 mikrokontrollerining strukturasi va imkoniyatlari



3.5- rasm. ATmega128 mikrokontroller chiqishlari belgilanishi.

Mikrokontroller ATmega128 quyidagi funksional bloklar:

- 8-razryadli arifmetik mantiqiy qurilma (AMQ);
- ichki 128 Kbaytli dasturiy flash-xotira;
- 32 umumiy foydalanuvchi registr;
- 4 Kbaytli ichki EEPROM ma'lumot xotirasi;
- 4 Kbaytli ichki OXQ;
- 6 ta parallel 8-razryadli port;
- 4 ta dasturlanuvchi taymera-hisoblagich;
- 10-razryadli 8-kanalli ARO' va analog komparator;
- ketma ket interfeyslar UART0, UART0, TWI va SPI;
- uzilishlar va boshqarish bloki .

Port A (PA7..PA). 8-razryadli ikki yo'nalishli port.

Port B (PB7..PB0). 8-razryadli ikki yo'nalishli port. O'rnatilgan rezistorli. Port V maxsus funksiyalardan foydalanishda ham ishlatiladi.

Port C (PC7..PC0). Port S 8-razryadli chiqish porti. Port C adres shinasini tashkil qilishda foydalaniladi.

Port D (PD7..PD0). 8-razryadli ikki yo‘nalishli port. Port D maxsus funksiyalarni ishga tushirishda foydalaniladi.

Port E (PE7..PE0). 8-razryadli ikki yo‘nalishli port. Port E maxsus funksiyalarda foydalaniladi.

Port F (PF7..PF0). 8-razryadli kirish porti. Kirish portlari analog raqamli o‘zgartirgichlarning analog kirishlari ko‘rinishida foydalaniladi.

#RESET. Qayta yuklash kirishi. 50 ns vaqtni ushlab turish kerak.

XTAL1, XTAL2. Invertirlanuvchi kuchaytirgich takt chastotasini kirish chiqishi.

TOSC1, TOSC2. Taymer hisoblagich generator kuchaytirgichi inverterli kiritish chiarish.

#WR, #RD. Tashqi ma’lumot xotirasi o‘qish yozish strobi.

ALE. Tashqi xotira adresi fiksatsiyasi strobi. AD0-AD7 ma’lumotlarni uzatishda foydalaniladi.

AVCC. Analog raqamli o‘zgartirgichlar manba’ ta’minoti.

AREF. Analog raqamli o‘zgartirgich uchun tayanch kirish.

#PEN. Ketma ket interfeys orqali dasturlanishga ruxsat chiqishlari nterfeysi. Ushbu chiqishda signalning ushlab turilishi qurilma ketma ket kanal orqali dasturlanish rejimiga o‘tadi.

VSS, GND. 8-razryadli ikki yo‘nalishli port. Manba’ ta’minoti va yer.

Mikrokontroller kiritish/chiqarish portlari va xotirani tashkil qilish. Mikrokontroller AVR Garvard arxitekturasiga asoslangan bo‘lib, dasturiy va ma’lumot xotirasi alohida maydonda joylashgan.

AVR arxitekturasining afzalliklari: - Dasturiy xotira sifatida ichki flesh-xotira ishlatiladi. U 16-razryadli yacheykalardan tashkil topgan massiv ko‘rinishida bo‘lib port SPI orqali yuklanadi;

ma’lumot xotirasi 8-razryadni tashkil qiladi. Kichik 32 adres maydonni UFRB tashkil qiladi, 64 k/ch registr adresiniv, ichki OXQ sig‘imi 4096 yacheykani.OXQ 60 Kbaytgacha;

3.2.- Jadval.

ATMega128 xotirasin tashkillashtirish

Dastur xotirasi		Ma’lumot xotirasi	
Amaliy xotira sektori	\$0000	32 registrlar	\$0000-\$001F
		64 registr k/ch	\$0020-\$005F
		160 k/ch kengaytirilgan registr	\$0000-\$00FF

		Ichki YuOXQ (4096x8)	\$0100 \$10FF
		Tashqi YuOXQ (64x8)	\$1100 \$FFFF
Dastur boshlang'ich yuklanish sektori	\$FFFF		

- Ichki EEPROM sig'imi 4 Kbaytgacha bo'lib unga murojaat maxsus k/ch registrlar orqali bo'ladi.

	7	0	Addr.	
	R0		0x00	
	R1		0x01	
	R2		0x02	
	...			
	R13		0x0D	
	R14		0x0E	
	R15		0x0F	
General Purpose Working Registers	R16		0x10	
	R17		0x11	
	...			
	R26		0x1A	X-register Low Byte
	R27		0x1B	X-register High Byte
	R28		0x1C	Y-register Low Byte
	R29		0x1D	Y-register High Byte
	R30		0x1E	Z-register Low Byte
	R31		0x1F	Z-register High Byte


3.6- rasm. ATmega128 mikrokontroller umumiy foydalaniladigan registrlar bloki

3.6. Mikrokontrollerlar asosidagi tizimlarning imkoniyatlarini kengaytirish va sifatini oshirish uchun maxsus funksiyalar

AVR-mikrokontrollerlarining komandalar tizimiga arifmetik va logik operatsiyalar komandalari (instruksiyalari), tarmoqlanish komandalari, dasturning ketma-ketlikda bajarilishini boshqarish komandalari, ma'lumotlarni uzatish komandalari va bitlar bilan bajariladigan operatsiyalar komandalari kiradi. Umumiy komandalar

tizimiga 130 dan ortiq instruksiyalar kiradi. Mikrokontrollerlarning eski modellarida ba'zi bir komandalarni qo'llab bo'lmaydi.

Mikrokontrollerlarni dasturlash. Bir kristalli mikrokontrollerlar asosida dasturiy ta'minotni tuzish jarayoni quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi (3.7. - rasm):



3.7-rasm. Bir kristalli mikrokontrollerlar asosida dasturiy ta'minotni tuzish jarayoni.

- algoritmni va dasturni tuzilishini (strukturasini) tuzish;
- dasturni asos matnini yozish;
- bajarilgan dasturni olish;
- dasturni sinash va sozlash;
- yuklangan dasturni olish.

Algoritmni va dasturni tuzilishini (strukturasini) tuzish jarayonida vazifani bajarish metodi tanlaniladi va uni amalga oshirish algoritmi tuziladi. Algoritm bu – qoidalar jamlamasi yoki ma'lum bir vazifani bajarilish operatsiyalarini ketma-ketlikda yozilishidir. Algoritmni grafik ko'rinishi - algoritm sxemasidir. Dasturiy ta'minotni yaratish bosqich tarkibi, uni modellarda translyatsiyalash va sozlashi foydalaniladigan tizimli vositalarga sezilarli darajada bog'liq. Hozirgi vaqtda 8-razryadli MK resurslari yuqori darajali dasturlash tillarini quvvatlash uchun

yetarli. Bu tarkibiy dasturlashning barcha afzalliklaridan foydalanish imkoniyatini beradi, alohida translyatsiyalanish modullarini ishlatib dasturiy ta'minotni loyihalashtirish kabi. Bir vaqtning o'zida quyi darajali dasturlash tili assemblerda ham keng miqyosida foydalanilmoqda, ayniqsa kerak bo'lgan vaqt oralig'i nazoratlanishi zarur bo'lganda

Dasturni asos matnini yozish jarayonida tuzilgan algoritmdasturning asos tili ko'rinishida yoziladi (assemblerda yoki yuqori darajali tilda).

Assembler tili – har bir protsessor komandasiga yoki protsessor komandalarining jamlamasiga qisqartirilgan ramziy yozuv (mnemonika) mos keladigan dastur tilidir.

Komandalarni ramziy belgilashni, hamda registr va xotira yacheykalarini adresini, o'zgaruvchilarni, o'zgarmaslarni (konstant) va boshqa dastur elementlarni ishlatish, dasturni tuzish jarayonini osonlashtiradi. Elementlarni ramziy belgilash odatda ularni mazmunini yoritib beradi.

Assembler tili, dasturlanayotgan mikroprotsessorning (mikrokontrollerning) hamma resurslariga yo'l ochib beradi va tezlik jihatdan va xotirada egallanadigan joy bo'yicha effektiv dastur tuzishga imkon beradi. Shuning uchun assembler tilida dasturlash mikroprotsessorning xususiyatini va arxitekturasini bilishni talab etadi.

Assembler tilari har xil turdagi mikroprotsessorlar uchun ajraladi. Bir qator assemblerlarda bitta makrokomandalar (makros) singari qaytariladigan ketma-ketlikdagi komandalarni ro'yxatga olishga yo'l qo'yiladi. Bunday assemblerlarni makroassemblerlar deb atashadi.

Yuqori darajali tillar (S, Paskal, Beysik va boshqalar), assembler singari, mikrokontrollerning hamma resurslariga yo'l ochib beradi, lekin bundan tashqari yaxshi tuzilishga ega dasturlarni tuzishga imkon beradi, dasturchidan xotirani bo'lish tashvishidan holi qiladi va standart operatsiyalarni bajarish uchun ko'p biblioteka funksiyalari to'plamiga ega.

Bajarilgan dasturni olish bosqichida dasturning asoasiy matni maxsus vositalar (translyatorlar, kompilyatorlar, joylashtirgichlar va boshqalar) yordami bilan bajariladigan kodga aylanadi. Translyator (translyator) bu – assembler tilidagi dasturni, protsessor “tushunadigan” mashinaviy kodga o'girish uchun mo'ljallangan dasturdir.

Kompilyator bu – yuqori darajali tilda dastur matnini, ekvivalent mashinaviy kodga o'giradigan dasturdir. Ob'ekt modullaridan

tuzilayotgan dasturni qurish uchun joylashtirgich (linker) qo‘llaniladi. Dasturni asos matnidan, bajarilayotgan dasturni olish jarayonida, ishlatilayotgan dastur tilida sintaksis qoidasi buzilgan statik xatolar yo‘q qilinadi.

Dasturni sinash va sozlash bosqichida izlash, joylashish va unda logik xatolarni bartaraf qilish amalga oshiriladi. Sinash, dasturda xatolarni aniqlash uchun xizmat qiladi va ba’zi bir matnli ma’lumotlarni jamlamasidan foydalanilgan holda bajariladi.

Matnli ma’lumotlar algoritmini hamma tarmoqlarini tekshiruv bilan ta’minlamoqi lozim. Dasturni sinoViddan keyin sozlanishi (debug) lozim. Buning vazifasi xatolarni yo‘qotishdir, ya’ni dasturda xatolik berayotgan joylarni topishdan iborat.

Yuklangan dasturni olish bosqichida sinash va sozlash uchun ishlatilgan ortiqcha parchalardan (qismlardan) dasturni “bo‘shatish” amalga oshiriladi. Bu parchalar dastur hajmini oshiradi va mikroprotsessori tizimini normal ishlashi uchun kerak emas. Keyin olingan yuklash dasturi mikrokontroller xotirasiga kiritiladi.


O‘rnatiladigan mikroprotsessornlarni dasturiy ta’minotini (DT) tuzish, maxsus dasturiy va apparat vositalarini ishlatgan holda, shaxsiy kompyuterlarda bajariladi. Dasturiy ta’minot bunday tuzish turi kross-ishlab chiqish deb ataladi. Dasturiy ta’minot ishlab chiqishda va sozlashda qo‘llaniladigan apparat va dasturiy vositalarni jamlamasini, bitta nom bilan – ishlab chiqishni qo‘llab-quvvatlash vositalari deb atashadi.

Dasturiy ta’minotni tekshirish va sozlash uchun dasturiy simulyator deb nomlanuvchi vositadan foydalaniladi, u foydalanuvchiga yaratilgan dasturni MK ning dasturiy-mantiqiy modelida bajarish mikonini beradi.

4. MIKROKONTROLLERLARLAR ASOSIDA QURILMALARINI LOYIHALASHTIRISH

4.1. Mikrokontrollerlarning dasturiy ta'minotini yaratish va apparat ta'minoti bilan integrasiyalash

Mikrokontrollerlar – hisoblash asboblari, qurilmalar va har xil vazifalarda qo'llaniladigan tizimlarda ishlatiladigan mikroprotsektorlarni eng keng sinfini tashkil qiladi. Mikrokontrollerlar bu – texnik ob'ektlarni boshqarish qurilmalarni va texnologik jarayonlarni hosil qilish uchun mo'ljallangan maxsus mikroprotsektoridir [15]. Tuzilishi jihatidan mikrokontrollerlar, kristalida hisoblash tizimining hamma tarkib qismlari: mikroprotsektor, xotira, hamda qo'shimcha funksiyalarni amalga oshirish uchun periferiya qurilmalari joylashtirilgan, katta integral sxemani (KIS) tashkil qiladi.



4.1- rasm. Mikrokontroller asosidagi boshqaruv tizimining tuzilishi: BSSH – boshqaruv signallarini shakillantirgichlar; BQ – bajaruvchi qurilma; D – datchiklar; SHSh – signallar holatini shakillantirgichlar.

Mikrokontrollerli boshqaruv tizimiga mikrokontroller va u bilan boshqaruv ob'ektini ulash (biriktirish) qurilmasi kiradi (4.1- rasm) [13].

Mikrokontrollerlarning hamma elementlari bitta kristalda joylashgani uchun, ularni bir kristalli (bir korpusli) mikro Elektr hisoblash mashinalari yoki bir kistalli mikrokontrollerlar deb ham atashadi. Mikrokontrollerlarni qo'llashdan maqsad – komponentlar sonini qisqartirish, o'lchamini kamaytirish va qurilmani (tizimni) narxini tushirishdir.

Odatda, mikrokontrollerlar RISC-arxitekturasiga (RISC – Reduced Instruction Set Computer), kam xajmli xotiraga, fizik va logik bo‘lingan dastur xotirasi va komandalar tizimini boshqarish uchun mo‘ljallangan ma‘lumot xotirasiga ega. Shunday qilib, mikrokontrollerlar boshqarish masalasini yechish, nazorat, tartibga solish va ma‘lumotlarga dastlabki ishlov berish uchun mo‘ljallangan va shuni aytib o‘tish lozimki, ma‘lumotlarga ishlov berishni qiyin algoritmlarini amalga oshirishda kam samaraga ega.

Mikrokontroller ob‘ekt bo‘yicha holat signallarini davriy so‘rab turadi va joylashtirilgan algoritmgaga muvofiq boshqaruv signallarini ketma-ketligini ishlab chiqaradi. Holat signallari boshqaruv signallarini joriy parametrlarini xarakterlaydi. Ular datchikning (D) chiqish signallarini analog-raqamli o‘zgartirgich (ARO‘) yoki signallar holatini shakillantirgich (SHSh) yordamida o‘zgartirish yo‘li bilan shakillanadi. Mikrokontroller orqali tanlangan Boshqaruv signallari, raqamli-analog o‘zgartirgich (RAO‘) yoki boshqaruv signallarini shakillantirgich (BSSh) yordamida o‘zgartiriladi. Bajaruvchi qurilmaga (BQ) keladigan RAO‘ va BSSh chiqish signallari mos ravishda analog va diskret boshqaruv ta‘siriga ega. Tizimida yana boshqaruv paneli, indikatsiya qurilmasi va tashqi qurilma bilan ma‘lumot almashtirib turish uchun interfeys bo‘lishi mumkin. Ma‘lum tizimning vazifasi va xarakteristikasi qarab yuqorida ko‘rsatitilgan elementlarning ba‘zi biri mavjud bo‘lmasligi mumkin.

Ishlab chiqariladigan mikrokontrollerlarning razryadiga qarab 4 dan 64 bitgacha bo‘ladi. Har xil dasturlarda ishlayotgan va arzon narxi bilan ajralib turadigan 8 razryadli mikrokontrollerlar dunyoda eng ko‘p tarqalganlar mikrokontrollerdir [11]. Atmel firmasining AVR oilasiga mansub mikrokontrollerlar shular sirasidandir.

Serial funksiyasi Arduino bilan kompyuter yoki ketma – ket ma‘lumot almashish interfeysini ta‘minlaydigan boshqa qurilmalar orasida bog‘lanishni hosil qilishga xizmat qiladi. Arduining barcha platalarida hech bo‘laganda bitta keta-ket port mavjud bo‘ladi (UART, Bazida USART deb nomlanadi). Serial ma‘lumot almashish uchun raqamli kiritish/chiqarish 0(RX) va 1 (TX) portlari shuningdek USB portlardan foydalanadi. Serial funksiyalaridan foydalanayotgan vaqtda hech qachon 0 va 1 portlarni boshqa maqsadda foydalanmasilik kerak.

Arduino Mega platasi 3 ta qo‘shimcha ketma-ket portlardan iborat: Serial 1 19(RX) va 18(TX) portlarida, Serial 2 17(RX) va 16(TX) portlarida, Serial 3 15(RX) va 14(TX) portlarida. Ushbu portlardan kompyuterlar bilan bog‘lanish o‘rnatishda foydalanish uchun qo‘shimcha maxsus USB – to – serial adapter kerak bo‘ladi. Chunki ular Mega platasidagi o‘rnatilgan adpterga ulanmagan. Ketma –ket interfeys orqali bog‘lanish o‘rnatish uchun platani TX portiga tashqi qurilmani RX portini, platani RX portiga tashqi qurilmani TX portini ulash lozim.

Ogohlantirish: Ushbu portlarni RS232 portiga to‘g‘ridan to‘g‘ri ulash mumkin emas, plataga zarar yetishi mumkin.

Serial funksiyalari:

- **Serial.begin ();** // bog‘lanishni o‘rnatish
- **Serial.end ();** // bog‘lanishni yopish
- **Serial.available ();** // ketma-ket aloqa interfeysidan o‘qish imkoni mavjud bo‘lgan baytlar soni

- **Serial.read** (); // keta-ket bog‘lanish buferidagi navbatda turgan baytlarni hisoblash
- **Serial.flush** (); // chiquvchi ma’lumotlarni uzatilishini tugashini kutib turish (**Arduino** 1.0+ uchun)
- **Serial.print** (); // ma’lumotlarni ketma-ket port orqali ASCII matn ko‘rinishida uzatish
- **Serial.println** (); // ma’lumotlarni ketma-ket port orqali ASCII matn ko‘rinishida keyingi satrga ko‘chirish belgisi bilan uzatish
- **Serial.write** (); // ushbu funksiya ketma-ket bog‘lanishda ma’lumotalarni ikkilik (binar) ko‘rinishida uzatish
- **Serial.peek** (); // kiruvchi ketma-ket bog‘lanish buferidan keyingi mavjud baytlarni qaytaradi.

Serial.print() ketma-ket port orqali ma’lumotalarni ASCII matn ko‘rinishida uzatadi. Ushbu funksiya turli ma’lumot turlarini qabul qiladi. Butun sonlar ASCII simvollariga muvofiq ravishda chiqariladi. Kasr sonlarni uzatishda butun va kasr qismlarini ifodalash uchun ASCII simvollaridan foydalanadi. Baytlar muvofiq raqamlar simvoli ko‘rinishida uzatiladi. Simvollar va qatorlar shundayligicha uzatiladi.

Misol uchun

- `Serial.print(78)` // "78" ko‘rinishida uzatadi
- `Serial.print(1.23456)` // "1.23" ko‘rinishida uzatadi
- `Serial.print(byte(78))` // "N" ko‘rinishida uzatadi (chunki ASCII jadvalida "N" 78 tartib raqamida joylashgan)
- `Serial.print('N')` // "N" ko‘rinishida uzatadi
- `Serial.print("Hello world.")` // "Hello world." ko‘rinishida uzatadi

Ikkinchi parameter yordamida sonlar uchun sanoq sistemasini o‘zgartirishimiz mumkin. BYTE berilgan raqamga mos ASCII dagi simvolni chiqaradi. Bundan tashqari BIN (ikkilik ko‘rinishida), OCT (sakkizlik ko‘rinishida), DEC (o‘nlik ko‘rinishida) va HEX (o‘n oltilik ko‘rinishida) parametrlari ham mavjud. Kasr sonlarni chiqarishda ikkinchi parameter nuqtadan keyingi kasr qism sonlarni necha xona bo‘lishini belgilaydi.

Misol uchun

- `Serial.print(78, BYTE)` // "N" chiqaradi
- `Serial.print(78, BIN)` // "1001110" chiqaradi
- `Serial.print(78, OCT)` // "116" chiqaradi

- `Serial.print(78, DEC) // "78" chiqaradi`
- `Serial.print(78, HEX) // "4E" chiqaradi`
- `Serial.println(1.23456, 0) //"1" chiqaradi`
- `Serial.println(1.23456, 2) // "1.23" chiqaradi`
- `Serial.println(1.23456, 4) // "1.2346" chiqaradi`

Sintaksis

- `Serial.print(val)`
`Serial.print(val, format)`

Parametrlar


- **val**: ketma-ket bog‘lanishdan uzatiladigan ma’lumot
- **format**: sanoq sistemasi asosi yoki kasr sonni nuqtadan keying belgilar soni

Ketma-ket interfeysdan foydalanilgan holda Arduinodan arduinoga bog‘lanish

Arduino 2 platasidan ma’lumot almashish imkoniyati uning asosiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Misol uchun bitta Arduino platasi motorni boshqarsa, ikkinchisi sensorlarga ulanadi va boshqaruv signallarini birinchi mikrokontrollerga uzatadi. Ikkita Arduino platasida ma’lumot almashish ketma – ket interfeys (serial) yordamida amalga oshiriladi. Buning uchun RX va TX kontaktlari ishlatiladi.

Ulanish sxemasi

Quyidagi rasmda ikkita Arduino platasini ulanish sxemasi ko‘rsatilgan. Ushbu chizmada ikkita Arduino UNO platasi keltirilgan, agar RX va TX muvofiq kontaktlaridan foydalanilsa, Arduino Mega platasidan ham foydalanish mumkin.



5.1- rasm. Ikkita Arduino UNO platasini ulanish sxemasi

Dasturlash xususiyatlari

Serial interfeysdan foydalanilgan vaqtda, ma'lumotlar baytlarda uzatiladi. Ushbu baytlar ikkinchi Arduino tomonidan bittalab hisobga olinadi. Agar biz simvollar yuborsak, ularni baytga aylantirishda muammo bo'lmaydi. Agarda simvol va baytlarni birdaniga yuborsak, simvol va raqamlar baytda bir xil qiymatni qabul qilishi mumkin. Bu esa ma'lumotni qayta o'qishda muammolar tug'diradi. Bu muammodan qutilshning birdan bir yo'li simvol va raqamlarni bir vaqtda yubormaslik.

Oddiy sketch

Ikkita Arduinoda ma'lumot uzatishni sozlash uchun [Physical Pixel](#) misolidan foydalanishimiz mumkin. Physical Pixel ni yuklash, ushbu misolni Arduino IDE papkasidan topishimiz mumkin: File >> Examples >> Communication.

Ikkinchi Arduino platasiga quyidagi sketchni yuklang:

```
void setup() {  
  Serial.begin(9600);  
}  
  
void loop() {  
  Serial.print('H');  
  delay(500);  
  Serial.print('L');  
  delay(500);  
}
```

Kod ishlashni boshlasa, Arduinoning 13-pinidagi svetodiod 0.5 HZ chastota bilan yonib o'chadi.

Sketchni ishlashiga yanada ishonch hosil qilish uchun kutish qiymatini (delay) o'zgartirib tekshirib ko'rish mumkin.

“H” sivoli svetodiodning yonishini ta'minlasa, “L” svetodiodni o'chishi uchun javobgar bo'ladi. Boshqa amallar bajarish uchun ushbu ro'yhatni kengaytirish mumkin.

Lekin ushbu kod yetarlicha moslashuvchan emas va qiyinroq va kompleks masalalarni yechish imkoniyatiga ega bo'lmasligi mumkin.

Kengaytirilgan sketch

Arduinodan boshqa Arduinoga ma'lumot uzatish uchun sketchni boshqa usuli bor. Bunda uzatiladigan barcha ma'lumotlar simvolga aylantiriladi. Ikkinchi Arduino platasi ham kelayotgan ma'lumotlarni simvol ko'rinishida qabul qiladi.

Ma'lumot uzatuvchi Arduino uchun sketch. Ushbu sketch ma'lumot uzatuvchi, simvollarni baytga aylantiruvchi va agar zarur bo'lsa raqamni simvolga aylantiruvchi kontroller uchun. Quyida ushbu sketchga misol keltirilgan:

```
const int ledPin = 13; // LED ulangan pin
byte incomingByte;      // kiruvchi ma'lumotlarni o'qish uchun
o'zgaruvchi
void setup() {
  Serial.begin(9600);
  pinMode(ledPin, OUTPUT);
}
void loop() {
  if (Serial.available() > 0) {
    incomingByte = Serial.read();
    Serial.print(incomingByte);
    if (incomingByte == 'H') {
      digitalWrite(ledPin, HIGH);
    }
    if (incomingByte == 'L') {
      digitalWrite(ledPin, LOW);
    }
  }
}
```

Topshiriq: Arduinodan Arduinoga ketma-ket interfeys orqali o'z shaxsiy ma'lumotlaringizni (F.I.SH guruh raqami) uzating.

Nazorat savollari:

1. Arduinoda serial port nima maqsadda ishlatiladi?
2. Serial port funksiyalarini sanang?
3. RX va TX farqlarini sanang?
4. Qaysi Serial funksiyasi ketma-ket bog'lanishda ma'lumotlarni ASCII matn bilan keyingi qatorga o'tish belgisi bilan uzatiladi?

Laboratoriya ishi №2

Arduino uchun RS232 portini ulash


Ishdan maqsad: Ketma-ket RS232 portini o‘rganish va Arduinoga ulashni jarayonini o‘rganish.

Kerak qurilmalar:

1. Kontroller Arduino UNO R3
2. RS 232 seriyali port
3. Ulash uchun similar

Nazariy ma’lumotlar

Ulanish sxemasi



5.2- rasm. Arduino uchun RS232 portini ulash

Seriali Port (Ketma-ket port, COM-port) interfeysi standarti RS-232, shaxsiy kompyuterlar bilan jihozlangan.

Bunda parallel portlardan farqli o‘laroq ma’lumotlar bir ozroq, izchillik bit tomonidan shu port orqali uzatiladi, chunki Port o‘z nomi bilan "keyingi" deb nomlangan. Ba’zida kompyuter interfeyslari (masalan, Ethernet, FireWire va USB) deb ham ataladi axborot izchil yo‘l almashishdan, foydalanishiga qaramay "serial" port RS-232 standarti tayinlangan edi.

ASCII-jadval

Misol uchun, ASCII kodli karta yuklash uchun jadval ko'rsatadi. ASCII da o'nlik raqamlar, lotin va milliy alifbo, tinish va nazorat belgilari ishlatiladi kodlash uchun.

```
int symbol = 33;
void setup() {
  Serial.begin(9600);
  Serial.println("ASCII Table ~ Character Map");}
void loop() {
  Serial.write(symbol);
  Serial.print(", dec: ");
  Serial.print(symbol);
  Serial.print(", hex: ");
  Serial.print(symbol, HEX);
  Serial.print(", oct: ");
  Serial.print(symbol, OCT);
  Serial.print(", bin: ");
  Serial.println(symbol, BIN);
  if(symbol == 126) {
    while(true)
    {
      continue;
    }
  }
  symbol++;
}
```

O'zgaruvchi belgisi kodni saqlaydi. Jadval 33 dan boshlanadi va 126 tugaydi, shuning uchun original o'zgaruvchan belgi sifatida 33 uchun o'rnatiladi.

UART port ish boshlash uchun Serial.begin () funksiyasi hisoblanadi. Uning yagona qobiliyati - bu tezlik bo'ladi.

Asynchronous Transfer Protokol darajasi sifatida oldindan uzatish va qabul qiluvchi tomonida kelishish kerak. Bu misolda, 9600 s darajasi.

Funksiyalari tomonidan ishlatiladigan port uchun qiymatni yozish uchun:


Uch funksiyali funksiya tomonidan ishlatiladigan port uchun qiymatni yozish:

1.Serial.write () - ikkilik shaklda portga ma'lumotlar yozadi.

2.Serial.print () ko'p ma'nolarga ega bo'lishi mumkin, lekin ular inson o'qib ma'lumot shaklida ko'rsatish uchun ishlatiladi. Terminal dasturini namoyishi bu ma'lumotlarni o'zgartirgan holda - axborot uzatish uchun, bir parametr sifatida belgilangandek ta'kidladilar.

Agar hisob bir tizimda bir qiymatni aks ettirish uchun zarur bo'lsa, bu rasmiy so'z qo'shish kerak bo'ladi: bin ikkilik, OKT - sakkiz qirrali, DEC - o'nlik, HEX - hexadecimal.

Misol uchun, Serial.print (25, HEX). Serial.println () va Serial.print () bir xil lekin, print kelgan joyidan davom etaversa println keyingi qatorga o'tkazadi.




5.3- rasm. Menyudan tanlash

Sinash uchun dastur kompyuteringizdan COM-port terminalda dasturi orqali bor ma'lumotlarni oladi. Uni chaqirish uchun, menyu Vositalar-> Port monitor tanlanadi. Bu qism juda oddiy:

Monitoring porti:

Endi tiklash (перезагрузки) tugmasini bosing. МК qayta tiklanganda ASCII jadvali namoyon:



5.3- rasm. Jadval ASCII

Bu yerda kod qismi eslatma:

```
if(symbol == 126){
    while(true) {
        continue;
    }
}
```

Bu dasturning ijrosini to‘xtatadi. Agar uni bataraf qilib bo‘lsa – jadval abadiy ko‘rsatiladi. Bilimlarni mustahkamlash uchun nomi ketma-ket bo‘lgan port yuborish sekundiga bir marta bo‘ladi va bu sikl doim bir yo‘nalishda harakat qiladi.

Kompyuterlardan buyuruqlar yuborish

Agar bu ishni oldin siz qanday qilib qilish kerakligini bilmogchi bo‘lsa ngiz COM-port haqida ma’lumot olishingiz kerak. Birinchidan barcha kommunikatsiya xotira buferi orqali sodir bo‘ladi. Bunda siz PC qurilmaga signal, belgi yuborganizda, ma’lumotlar xotiraning ba’zi maxsus bo‘limiga joylashtiriladi. Qurilma tayyor holatda deyilganda bir martra – bu bufer ma’lumotlarini o‘qishi hisoblanadi.

Agar buffer boshqaruvi Serial.available () funksiyasini bersa, ushbu funksiya driktev baytning sonini qaytaradi. Bu bayt yordamida serial.read () funksiyasidan foydalanishingiz kerak. Bir misol bilan bu funksiyalarning ishini ko‘rib chiqaylik:

```

int val = 0;
void setup(){
    Serial.begin(9600);
}
void loop(){
if (Serial.available ()>0) ;
    val = Serial.read();
    Serial.print("I received: ");
    Serial.write(val);
    Serial.println();
    }
}

```

Mikrokontroller kodi, ochiq COM-port monitor xotirasiga o'rnatilganidan so'ng, bir belgi kiriting va Enter tugmasini bosing. Ma'lumotlar sohasidagi "Men qabul qilgan X", o'rniga X belgilar kiritilishi qayerda ekanligini ko'rasiz.

Dastur cheksiz magistral ko'chadan aylanadi. Port baytda Serial.available () funksiya yozilgan bir paytda, holati Serial.available ()>0 bo'ladi. Keying Serial.read() funksiyasi shu bilan tozalanadi, ya'ni 1 qiymatini oladi. Shundan so'ng siz allaqachon ma'lim xususiyatlardan foydalangan holda arduinoga o'rnatilgan monitor COM-portdan foyalanishda ayrim cheklovlar hambor.

Mahsulotining COM-portdan foydalanishda ayrim cheklovlar ham bor. Mahsulotining COM-portiga kartadan ma'lumotlar yuborganda har qanday shaklda ajratish mumkin. Agar karta xususiyatini kompyuterdan yuborsangiz, ASCII jadvalga ko'ra sodir bo'ladi. Bu sizga, bunday COM-port orqali xarakterdagi "1", deb (ya'ni "49") ikkilik "00110001" yuborilgan degan ma'noni anglatadi. Ko'p bo'lmagan kodni o'zgartirish bu bayonot tekshirishidir:

```

int val = 0;
void setup(){
    Serial.begin(9600); }
void loop(){
if (Serial.available ()>0) ;
    val = Serial.read();
    Serial.print("I received: ");

```

```

        Serial.println(val, BIN);
    }
}

```

Yuklashdan so‘ng, siz “1” yuborib u uchun monitorda “Men olganman: 110001” javobini ko‘rasiz. Siz boshqa belgilar bilan zaryadni oladigan chiqish formatini va ko‘rinishini o‘zgartirishingiz mumkin.

COM-port orqali qurilma Controli:

Shubhasiz, kompyuterdan buyuruqlar har qanday mikrokontroller vazifalari tomonidan nazorat qilinishi mumkin. LED ishlashini nazorat dasturini yuklab oling:

```

int val = 0;
void setup(){
    Serial.begin(9600);}
void loop(){
if (Serial.available ()>0) ;
    val = Serial.read();
if (val=='H') digitalWrite (13,HIGH);
if (val=='L') digitalWrite (13,LOW);
    }
}

```

Agar siz COM-portda yuborganingizda 'H' belgisining LED yotitishi 13 ni ishlab chiqarish belgisi bo‘lib oladi va sizga 'L' LED yuborib, o‘chirmoqchi bo‘ladi. COM-port ma’lumotlarni olgandan keyin siz magistral halqa sharoitida aniqlash amalga oshirilishi mumkin, turli harakatlarni amalga oshirish uchun magistral liniya ichida dasturiy ta’minot bo‘lishi kerak.

Misol uchun:

```

int val = '0';
void setup(){
    Serial.begin(9600);
}
void loop(){
if (Serial.available ()>0) ;{
    if (val = '1');{
        digitalWrite (13,HIGH); delay (100);
    }
}

```

```

    digitalWrite (13,LOW); delay (100);
}
if (val = '0');
    digitalWrite (13,HIGH); delay (500);
    digitalWrite (13,LOW); delay (500);
}
}

```

Monitor port qiymatini “1” LED 5 hz bo‘ladi, bir chastotada band bo‘ladi. Agar “0” jo‘natsangiz 1 hz bo‘lib chastota o‘zgaradi.

Topshiriq

№	LED'lar soni	Kechikish sek
1	1	200
2	2	100
3	6	500
4	4	2000
5	3	300
6	2	450
7	1	1000
8	4	850
9	2	600
10	6	520
11	4	430
12	1	1000
13	4	670
14	3	780
15	1	1000
16	2	1500
17	3	440
18	4	250
19	2	500
20	1	200

Laboratoriya ishi №3

Mavzu: O'rnatilgan aloqa tizimlarida Bluetooth interfeysi orqali ma'lumot uzatish va qabul qilishni loyihalashtirish.

Ishdan maqsad: Arduino misolida o'rnatilgan aloqa tizimlarida Bluetooth interfeysi orqali ma'lumot uzatish va qabul qilishni loyihalashtirishni o'rganish.

Kerakli qurilmalar:

- Arduino Uno R3
- Ulash simlari komplekti
- HC-06 Bluetooth
- Android bazasidagi telefon (Bluetooth interfeysi bilan)
- Bluetooth client dasturiy ta'minoti

Nazariy ma'lumotlar

Ushbu loyiha sizning telefon apparatingiz orqali masofadan turib boshqarish va ma'lumotlarni uzatib/qabul qilishga mo'ljallangan.




5.4- rasm. Ma'lumotlarni qabul qilish va uzatish

Ma'lumot almashishning eng mashhur usullaridan biri bu Bluetooth.

Bugun biz oddiy misol yordamida Arduinoga Bluetooth modulni qanday qilib ulanishini va Telefon orqali qanday qilib masofadan boshqarilishini ko'rib chiqamiz. Bluetooth modulni Arduino platasiga

ulash maxsus (PAPA-MAMA) simlari orqali juda oson amalga oshadi.

Arduino	Bluetooth
Pin 1 (TX)	RXD
Pin 0 (RX)	TXD
GND	GND
5V	VCC



5.4- rasm. Bluetooth interfeysi orqali ma'lumot uzatish

Quyidagilarni ulanishiga diqqatingizni qarating: $TX \rightarrow RXD$, $RX > TXD$.

Endi sinov kodini yozib ko'ramiz: Yuklash chog'ida Bluetooth modul Arduino platasidan uzilgan bo'lishi kerak. Agar ulangan

bo'lsa dastur yozilmaydi chunki Bluetooth modul bilan aloqa bitta port bilan bo'lib qoladi. RX va TX, USB uchun.

```
int val;
int LED = 13;
void setup()
{
  Serial.begin(9600);
  pinMode(LED, OUTPUT);
  digitalWrite(LED, HIGH);
}
void loop()
{
  if (Serial.available())
  {
    val = Serial.read();
    // При символе "1" включаем светодиод
    if (val == '1')
    {
      digitalWrite(LED, HIGH);
    }
    // При символе "0" выключаем светодиод
    if ( val == '0')
    {
      digitalWrite(LED, LOW);
    }
  }
}
```

Dastur kodini yuklab bo'lgandan keyin Bluetooth modulni Arduinoga ulash mumkin.


Keyingi qadam Bluetooth ni telefonga ulash. 1.Telefondan Bluetooth ni yoqamiz va yangi qurilmani qidiramiz

2.Topilgan ro'yhatda "HC-06" qurilmani nomi chiqadi va unga ulanamiz


3.Telefon Pin-Code so'raydi. Shunda "1234" yoki "0000" ni teramiz.

4.URRRRRRAAAA!!!. Qurilma ulandi.

Endi sizning telefon qurilmangizga bluetooth terminal ni yuklab olish kerak. Biz Android platformada qarab ko'ramiz.



Biz har xil bluetooth terminallarni sozlashimiz mumkin va ular faqat dizayni bilan farq qiladi vazifasi esa bir xil. Bundan keyin biz Bluetooth modulni ishga tushiramiz.



Qoʻllash uchun namuna: Bluetooth modul Arduino platasiga Bluetoothni oʻrnatish uchun ishlatiladi. Ish rejimi Passiv. Ishlash

uchun shunchaki boshqa qurilmani qidiramiz va unga ulanamiz xuddi NS-06 kabi. Bazaviy pini 1234.

Arduinoga ulagandan keyin ushbu Bluetooth port rolini o'ynaydi, biz ketma- ket portdan junatamiz va bu jarayonda Arduino jo'natib qabul qiluvchi port orqali muloqot qiladi.

Pinlari:

STATE – Svetodioddan signal qabul qilish.

RXD – kontakt ma'lumot qabul qilish uchun. Biz undan ma'lumot yuboramiz.

TXD – kontakt ma'lumot uzatish uchun.

GND – yer (minus “zemlya”)

VCC – Ta'minot 3.3 v

EN – Ta'minot yoqish\o'chirish, agar bir bersak modul yonadi. Agar modulga bir junatsak o'chadi.

Sozlash: Bazaviy sozlanmalarini o'zgartirish uchun nomi, pini, modulni perexodnik orqali PC ga ulash kerak va PC orqali AT buyrug'i bilan sozlamalarni o'zgartirish mumkin. Bu vaziyatda biz uni ko'rmaymiz shu sababli bizga perexodnik kerak bo'lmaydi.

O'zgartirish uchun buyruqlar ketma-ketligi:


AT - Qaytadi OK

AT+VERSION - Versiyasini ko'rish

AT+NAMEyyy – Qurilmani nomini o'zgartirish.

AT+PINxxxx – boshqa pin berish, bazaviy pin 1234

AT+BAUDx – tezlikni o'rnatish.



Keltirilgan misolda telefondan “1”ni 13 portdan junatyapmiz va svetodiod yonyapti “0”ni junatganimizda uchadi. Svetodiod 1sekund intervali bilan yonib o‘chadi.

```
enum { LED_PIN = 13 };
enum LedState
{ LED_ON, LED_OFF, LED_BLINK };
LedState led_state;
void setup(){
  led_state = LED_OFF;
  pinMode(LED_PIN, OUTPUT);
  pinMode(3, OUTPUT);
  Serial.begin(9600);
}
void loop(){
  if (Serial.available())
  {
    char command = Serial.read();
    switch (command)
    {
      case '1':
        led_state = LED_ON;
        Serial.println("Led On Cool");
        break;
      case '0':
        led_state = LED_OFF;
        Serial.println("Led Off Fall");
        break;
      case '*':
        led_state = LED_BLINK;
        Serial.println("Led Blink ");
        break;
      default:
        {
          for (int i = 0; i < 5; ++i)
          {
            digitalWrite(LED_PIN, HIGH);
            delay(50);
            digitalWrite(LED_PIN, LOW);
```

```

    delay(50);
  }
  Serial.println("Fail ....");
}
}
}
switch (led_state)
{
  case LED_ON:
    digitalWrite(LED_PIN, HIGH); break;
  case LED_OFF:
    digitalWrite(LED_PIN, LOW); break;
  case LED_BLINK:
    {
      static unsigned long start_millis = 0;
      if (millis() - start_millis >= 300)
      {
        start_millis = millis();
        digitalWrite(LED_PIN, !digitalRead(LED_PIN));
      }
    }
}
}
}
}

```

Laboratoriya ishi №4-5 O‘rnatilgan Ethernet tarmoqlarida ma’lumot uzatish


Ishdan maqsad: Ethernet modulini o‘rganish, uni ishlash prinsipi va Ethernetni aloqaning har xil yo‘nalishlarida sinab ko‘rish

Kerakli qurilmalar:

1. Ethernet moduli
2. Arduino platasi
3. kabellar
4. svetodiotlar
5. potensiometr
6. rezistor
7. 10BASE-T, 100BASE-T(x) i 1000BASE-T(x) standartidagi Ethernet tarmoqlarida ishlatiladigan 8P8C tipidagi UTP kabellari.

Nazariy ma'lumot

Arduino uchun ENC28J60 Ethernet modul - bu modul elektr priborlarni internet orqali boshqarish uchun mo'ljallangan qurilmalarni yig'ish va sayt sahifasida datchiklardan kelayotgan ma'lumotlar ko'rinib turish uchun mo'ljallangan. Sayt orqali priborlarni boshqarish va komandalarni bajarilganini tekshirish mumkin. Masalan: qadamli dvigael yordamida videokameralarni yon tomonga burishni va PK ekranida videosyomka ko'rinib turishini ishlab chiqish mumkin. Modul TCP/IP local tarmog'ida va internet tarmog'ida ishlaydi. ENC28J60 moduli imkoniyatlari va mikrokontroller dasturidan foydalangan holda Web-server yaratishadi. Modul MKni SPI interfeysi orqali TCP/IP tarmog'i bilan ulaydi. ENC28J60ga bog'langan Avtomatika qurilmalarini boshqarish internet orqali bir xil vaqtda yoki ketma-ket bit nechta




operator komyuterlari yoki mobil qurilmalari orqali amalga oshiriladi. ENC28J60 Ethernet modul Arduino uchun nafaqat avtomatika qurilmalarining bir qismi sifatida ishlatiladi, balki TCP/IP tarmog'i va Web-serverning tuzilishini o'rganishda ko'rinarli misol sifatida qo'llaniladi. Ko'rinuvchi komponentlar - ENC28J60 mikroshema. Platada TCP/IP tarmoq kabellari uchun razedkalar joylashtirilgan rozedka transformatorlarni TCP/IP tarmoqlardan modulning galvanichesiy yechimlarini ta'minlash va 2 ta yonib turuvchi svetodiod qaysiki ma'lumot almashayotganidan dalolat beruvchi. 25 MGs li kvarsniy rezonatorga ega. Vilka 10 kontaktli MK ga ulanadi. Quvvat ko'rsatgich. Android uchun ENC28J60 Ethernet modul Raspberry Pi yoki boshqa MK qurilmasi rejimida ishlashi mumkin. U MK bilan

yaxshi bog‘lanadi va bir xil urevendagi kuchlanishni oladi. MK dan faqat paketlarni uzatish va SPI interfeysi orqali kuchlanish qabul qilish talab etiladi.

Xarakteristika:

- kuchlanish 3,14 – 3,45 V
- tok kuchi , mA maksimalniy 250 normal 170
- MAC va 10 Base-T PHY ning birlashishi - polniy yoki poludupeks
- 10 Base-T portini qutblanishni avtomatik tanlovchi va korreksiya bilan quvvatlash
- kontrollangan summani avtomatik generatsiya qilish
- hatolik pakelarini avtomaik tashlab yuborish
- oshibka paketlarni qaytadan yuborish programma funksiyasi
- Padding va CRC geneatsiya qiladigan programma funksiyasi
- hatolik paketlarni filtrlovchi programma funksiyasi
- SPI takt chastotasi- 20 MGs gacha
- Plata razmeri: 55 x 36 mm

ENC28J60 modul	Arduino Uno
VCC	3.3V Pin
GND	GND Pin
SS (CS)	Pin 10
MOSI (SI)	Pin 11
MISO (SO)	Pin 12
SCK	Pin 13



4.1- rasm. Ethernet ENC28J60 va Arduino orasidagi bog‘lanish

Qayd etish joizki bu ulanishlarda aniq Arduino Uno yoki ATmega328 (Arduino Mini Pro, Arduino Nano va h.k.) uchun ENC28J60 moduli SPI interfeyslari ishlatiladi, shunday ekan agarda siz Mega lar bila ishlangiz unga mos SPI kontaktlarni tanlashingiz kerak.

Misol uchun: Ethernet ENC28J60 modul uchun programma. Siz bu modulni programma qilyotganizda **Arduino IDEda Ethercard bibliotekasidan** yuklab olish va qabul qilish uchun kerak bo‘ladi Bibliotekadan so‘ng biz keying dasturimizni yozamiz:

```
#include <EtherCard.h>
static byte mymac[] = {0xDD,0xDD,0xDD,0x00,0x01,0x05};
static byte myip[] = {192,168,1,177};
byte Ethernet::buffer[700];
const int ledPin = 2;
char* StatusLed="OFF";
void setup () {
  Serial.begin(9600);
  Serial.println("Laboratory Module ENC28J60");
  if (!ether.begin(sizeof Ethernet::buffer, mymac, 10))
  Serial.println( "Ne udalos poluchit dostup k kontrolleru Ethernet ");
  else
  Serial.println("Ethernet Controller initsializirovan ");
  if (!ether.staticSetup(myip))
  Serial.println("Ne udalos ustanovit IP - adres ");
  Serial.println();
  pinMode(ledPin, OUTPUT);
  digitalWrite(ledPin, LOW); }
static word homePage() {
  BufferFiller bfill = ether.tcpOffset();
  bfill.emit_p(PSTR("HTTP/1.0 200 OK\r\n"
    "Content-Type: text/html\r\nPragma: no-cache\r\nRefresh: 5\r\n\r\n"
    "<html><head><title>Naylamp Mechatronics</title></head>"
    "<body>"
    "<div style='text-align:center;'>"
    "<h1> Laboratory Module ENC28J60</h1>"
    "Delay Encoder : $L Milliseconds"
    "<br /><br />STATUS LED: $$<br />"
    "<a href='/?status=ON'><input type='button' value='ON'></a>"
    "<a href='/?status=OFF'><input type='button' value='OFF'></a>"
  ));
}
```

```

    "<br /><br />Encoder: $D (MAX 1024)"
    "<br /><br />"
    "</body></html>" ),
millis()/1000,StatusLed,analogRead(0));
    return bfill.position();}
void loop() {
    word len = ether.packetReceive();
    word pos = ether.packetLoop(len);
    if(pos) {
if(strstr((char *)Ethernet::buffer + pos, "GET /?status=ON") != 0) {
    Serial.println("Comando ON recibido");
    digitalWrite(ledPin, HIGH);
    StatusLed = "ON"; }
if(strstr((char *)Ethernet::buffer + pos, "GET /?status=OFF") != 0) {
    Serial.println("Comando OFF recibido");
    digitalWrite(ledPin, LOW);
    StatusLed= "OFF"; }
    ether.httpServerReply(homePage()); }
}

```

Asosiy kod:

```

staticeskii bayt mymac [] = {0xdd, 0xdd, 0xdd,
0x00,0x01,0x05};

```

```

staticeskii bayt MyIP [] = {192,168,1,177};

```

Biz bu yerda o‘zimizning MAC va IP adreslarini o‘rnatib va xohlagan qiymatni yoza olamiz ammo tarmoqqa ulanishda qurilmalarda bir xil MAC yoki IP bo‘lib qolmasligi kerak. **статического слова домашней страницы ()** funksiyasida biz o‘zimizning HTML ko‘rinishidagi vebsaytimizni yozamiz:

```

статическое слово домашней страницы () {
    BufferFiller ether.tcpOffset bfill = ();
    bfill.emit_p (PSTR ( "HTTP / 1.0 200 OK\r\n"
    "Content-Type: Текст / html\r\nPragma: без cachernRefresh: 5\r\n"
    "<HTML> <HEAD> <название> Naylamp Мехатроника </
title> </ голова>" " <тело> "
    " <DIV стил = \"выравнивания текста: центр;\"> "
    " <h1> Модул тестирования ENC28J60 </ h1> "

```



```

" Время истекло: $ L секунды "
" <br /> <br /> Государство LED: S $ <br /> "
" <a href= \"/?status=ON\"> <входной тип = \"кнопка\" значение
= \"на\"> </a> "
" <A HREF = \"/? состояние = OFF \"> <входной тип = \"
\"значение =\" OFF кнопка \"> </a>\"
" <br /> <br /> Потенциометр: $ D (1024)\"
" <br /> <br /> "
" <a href='http://www.naylampmechatronics.com/'>
www.naylampmechatronics.com </a> "
" </ body> </ html> "
милли секунд () / 1000, StatusLed, analogRead (0));
вернут bfill. положение ();}

```

E'tibor qarating o'zaruvchi ma'lumotlar yuborilganda \$ L \$ S \$ D markerlari ishlatiladi undan keyin uzun va tog'ridan- to'g'ri ma'umotlar uzatiladi. Biz browser ham o'rnatdik negaki har 5 sekunda stranitsa yangilanib tursin, bu "Refresh: 5" bilan bajariladi, sizga malumot-doimiy o'zgarissni ko'rsatuvchi qonun kerak. Yangilanish vaqti ma'lumotlar tipiga bog'iq. Keyingi solishtirish, agarda ma'lumotlar brauzerdan GET metodi yordaida jo'natilgan bo'lsa.

```

если (strstr (( символ *) Ethernet :: буфер + поз, "GET /? статус
= ON" ) != 0) {
Серийный . Println ( "ПОЛУЧИЛ по команде" );
digitalWrite (ledPin, ВЫСОКИЙ );
StatusLed = "ON" ; }

```



Topshiriq

№	Encoder uchun port	LED uchun portlar	Svetodiodlar soni
1	A1	2	1
2	A2,A4	3,8	2
3	A3,A5,A1,A2,A0,A4	2-8	6
4	A1,A3,A4,A5	2,4,6,7	4
5	A2,A0,A3	6,7,8	3
6	A4,A0	2,9	2
7	A0	2	1
8	A1-A4	3-7	4
9	A0,A5	8,9	2
10	A5,A4,A2,A1,A0,A3	3-9	6
11	A0-A3	4-8	4
12	A0	2	1
13	A5,A3,A0,A2	2-6	4
14	A3,A4,A5	7,8,9	3
15	A0	2	1
16	A4,A3	5,7	2
17	A5,A0,A1	4,5,6	3
18	A2,A3,A4,A5	1,5,6,8	4
19	A1,A3	8,9	2
20	A5	5	1

Nazorat savollari

1. Ethernet nima?
2. Ethernet ishlash prinsipi va ishlatilish sohasi?
3. Ethernet modulining xarakteristikasi?
4. Arduino va Ethernet ulanish sxemasi?

Laboratoriya ishi №6, №7

O‘rnatilgan ZigBee tarmoqlarda ma’lumotlar uzatish

Ishdan maqsad: ZigBee modulini o‘rganish, ishlash prinsipi va turli aloqa tarmoqlarida ZigBee foydalanish.

Kerakli qurilmalar:

- Arduino Platasi 2ta
- XBee 2 ta
- XBee shield 2 ta
- Kabel USB 1 ta
- 8 batareyali ko‘rinishda Arduino elektr ta’minoti AA.
- Rangli diodlar 2ta
- Simlar
-

Nazariy ma’lumotlar

ZigBee - yuqori darajadagi tarmoq protokollari spetsifikatsiyasi- ilova darajasi APS (eng. application support sublayer) va tarmoq darajasi NWK- pastki darajadagi xizmatlardan foydalanish – fizik darajada Mac dan foydalanish. ZigBee spetsifikatsiyasiga ko‘ra u ilovalarga yo‘naltirilgan, yuqori bo‘lmagan tezlikda ma’lumotlarni xavfsiz yuborish.





ZigBee qurilmasi

Italiya kompaniyasi Telit tomonidan ishlab chiqilgan ZigBee standart moduli, bu chipning TI dan CC2430 standartida tuzilgan.

Ushbu modul $21 \times 14,2 \times 2,2$ mm o‘lchamlarda tashkil etiladi.

Telit kompaniya moduli

Modul	Tuzilishi	Rasm
ZE50	1 mW chiqish quvvati; -92 Dbm befarqligi; 70 m gacha oralig'ida.	
ZE60	100 mW chiqish quvvati (ichki kuchaytirgichi); -98 DBm befarqligi; qadar 800 m diapazoni.	
ZE51	2,5 mW chiqish quvvati; -97 DBm befarqligi; takomillashtirilgan RF-qismi; 1000 m gacha oralig'ida.	
ZE61	100 mW chiqish quvvati (ichki kuchaytirgichi); -99 DBm befarqligi; takomillashtirilgan RF-qismi; up 4000 m oralig'i.	

**Misol**


2 x Arduino UNO doska

2 x 1 XBee Series Radio


XBee uchun 2 x Breakout Board& Kabel, USB-kabel AB, LED, mini zummer.


Birinchi bo'lib 1ta Xbee Radio seriasini konfiguratsiya qilamiz. Arduino boardning bittasidan foydalanamiz.

COM-port sizning kompyuteringiz qurilma menejeri orqali o'zgartiring chunku u Arduino Boarddan himoyalangan bo'ladi.



So'ng rasmdagidek o'zgartiring





Ikkinchi konfiguratsiya Xbee

Quyida ko'rsatilgandek, sozlash tanlang:


ATID1001 - birinchi XBee sifatida PAN ID Shu.

ATDL11 - joy Low birinchi My XBee manzili bo'lgan, 11 bo'ladi.


ATMY10 - Source URL sozlanishni u 10.

ATBD3 - oʻrnatish tezligi 3 (9600)

ATWR - oʻzgarishlarni roʻyxatdan uchun buyruq yozing.



XBEEs Arduino Wireless ulanishni amalga oshiramiz.



Joʻnatish Side Code ARDUINO "A"

-----/ * Bu dastur ketma-ket port boshlab va kapital "K" va soʻngra kutishlar ramzi yuboradi ismlar va «O qisqa vaqt ichida PIN 13 LED yoqish uchun */

```
Char readChar;
```

```
Void() {
```

```
pinMode (13, OUTPUT);
```

```
Serial.begin (9600 );
```

```
delay (500);
```

```
Serial.print ( 'K ');
```

```
delay (500); }
```

```

Loop() {
if (Serial.available ()> 0) {
    readChar = Serial.read ();
    if (readChar == 'O') {
        digitalWrite (13, HIGH);
        delay(5000);
        digitalWrite (13, LOW);    }
    }
}

```

Qabul qiluvchi tomon kodi Arduino "B"

/* Ushbu kod ovozli signal ketma-ket port va kommutator orqali kapital belgi "K" kutmoqda

1,5 uchun 11 PIN ulangan secs. Keyin u ketma-ket port orqali ko'rsatuvchi "O" yuboradi

Arduino A jo'natuvchi tomonida LED chiroqlar */

Int alarm = 11;

Void(){

pinMode (alarm, OUTPUT);

Serial.begin (9600); }

Loop(){

if (Serial.available ()> 0) {

if(Serial.read () == 'K') {

digitalWrite (alarm, HIGH);

delay (3000);

digitalWrite (alarm, LOW);

delay (1000);Serial.print ("O ");

}

}

```

sketch_feb26a5 | Arduino 1.0.3
File Edit Sketch Tools Help
sketch_feb26a5
char readChar;
void setup()
{
  pinMode(13,OUTPUT);
  Serial.begin(9600);
  delay(500);
  Serial.print('K');
  delay(500);
}
void loop()
{
  if (Serial.available() >0){
    readChar=Serial.read();
    if(readChar=='O'){
      digitalWrite(13,HIGH);
      delay(5000);
      digitalWrite(13,LOW);
    }
  }
}
Done uploading.
Binary sketch size: 2,430 bytes (of a 32,256 byte maximum)

```



```

sketch_feb26a 5
int Buzzer=11;
void setup()
{
  pinMode(Buzzer, OUTPUT);
  Serial.begin(9600);
}

void loop()
{
  if (Serial.available()>0) {
    if (Serial.read()=='K') {
      digitalWrite(Buzzer,HIGH);
      delay(3000);
      digitalWrite(Buzzer,LOW);
      delay(1000);
      Serial.print('0');
    }
  }
}

```

Done uploading.
Binary sketch size: 2,416 bytes (of a 32,256 byte max)

Topshiriq

No	LED uchun port	Svetadiodlar soni	Kutish vaqti msek
1	2	1	200
2	3,8	2	100
3	2-8	6	500
4	2,4,6,7	4	2000
5	6,7,8	3	300
6	2,9	2	450
7	2	1	1000
8	3-7	4	850
9	8,9	2	600
10	3-9	6	520
11	4-8	4	430
12	2	1	1000
13	2-6	4	670
14	7,8,9	3	780
15	2	1	1000
16	5,7	2	1500
17	4,5,6	3	440
18	1,5,6,8	4	250
19	8,9	2	500
20	5	1	200

Nazorat savollari:

1. ZigBee nima?
2. Zigbee tamoyili?
3. ZigBee ning ulanish sxemasi?

Laboratoriya ishi №10, №11

Arduino platasiga SIM800L GSM modulini ulash


Ishdan maqsad: GSM moduli haqida ko'nikmga ega bo'lish Arduino platasiga bilan bo'lanishini o'rganish.

Kerakli qurilmalar:


1. Arduino UNO R3 kontrolleri va USB kabellari
2. SIM800L GSM moduli (elektr manbasi $3.7\text{ V} < U < 4.2\text{ V}$)
3. Kuchlanishni kamaytiruvchi o'zgartirgich (DC-DC step-downconverter)
4. 12 V li batareya yoki ixtiyoriy elektr manbasi 6 V dan 20 V gacha
5. Ulovchi similar

Nazariy ma'lumot

GSM SIM800L modulining Arduino ga ulanish sxemasi:



GSM SIM800L modulining tuzilishi



Kuchlanishni o'zgartirgich orqali GSM modulga 12 V li batareyadan elektr kuchlanishi beramiz:

1. 12 V li batareyaning “manfiy” qutbi Arduino platasining GND siga ulanadi, GND esa kuchlanish o'zgartirgichning “kirish manfiy” qutbiga ulanadi.

2. 12 V li batareyaning “musbat” qutbi esa kuchlanish o'zgartirgichning “kirish musbat” qutbiga ulanadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, modul ishlashi uchun Arduino dan 5 V ni ulash xavfli bo'lishi mumkin. Shuning uchun uni sezgirlikni teksirish uchun avvaliga 3.3 V manba beramiz. Bu esa modullar o'rtasida bog'lanish hosil qilish uchun yetarli.

Bog'lanish o'rnatilgandan so'ng kuchlanish o'zgartirgich orqali $3.7 \text{ V} < U < 4.2 \text{ V}$ diapazondagi ixtiyoriy kuchlanishni chiqishga berishimiz mumkin.

Kuchlanish o'zgartirgichning chiqish qutblari GSM modul bilan o'zaro aloqani saqlaydi.

GSM SIM800L modulining TX va RX portlari Arduino platasining mos ravishda 2 va 3 oyoqchalariga ulanadi.

Agar biz Arduino platasiga bir vaqtning o'zida bir nechta GSM modulini ulamoqchi bo'lsa k, bimalol Arduino platasining boshqa oyoqchalarini ishlatishimiz mumkin va buni SoftwareSerial dasturi orqali belgilab qo'yamiz.

Bir nechta AT buyruqlari

1. AT + CMGF = 1 – SMS xabarni matn rejimini o'rnatish.
2. AT + IFC = 1, 1 – ma'lumot uzatishning dasturiy nazoratini o'rnatadi.

3. AT + CPBS = "SM" - xuddi shu telefon kitobidagi SIM kartaga kirishni ochadi.
4. AT + CNMI = 1,2,2,1,0 – yangi xabar kelganligi haqidagi signalni yoqish, kelgan yangi xabarning keying formati + CMT: “ < telefon raqami > ”, “”, “<kun, soat>” , keying qatordan xabarning birinchi belgisi boradi.

Sketch – dastur

```
#include <SoftwareSerial.h>
SoftwareSerial mySerial(2, 3); // RX, TX
void setup() {
  Serial.begin(19200); // Skorost porta dlya svyazi Arduino s kompyuterm
  Serial.println("Goodnightmoon!");
  mySerial.begin(19200);
  // Skorost porta dlya svyazi Arduino s GSM modulem
  mySerial.println("AT");
}
void loop() {
  if (mySerial.available())
    Serial.write(mySerial.read());
  if (Serial.available())
    mySerial.write(Serial.read());
}
```

SMS jo‘natish protsedurasi

```
void sms(String text, String phone) {
  Serial.println("SMS send started");
  mySerial.println("AT+CMGS=\"" + phone + "\"");
  delay(1000);
  mySerial.print(text);
  delay(300);
  mySerial.print((char)26);
  delay(300);
  Serial.println("SMS send finish");
  delay(3000);
}
```

Protsedura sketch dastur oxiriga qo‘shiladi va asosiy siklga quyidagicha murojaat qiladi:

sms(String("sms xabar matni"), String("+telefon raqami"));

SMS xabar jo‘natishni faqat muhim hodisalar uchun yoki sikl oddiy bo‘lmagan xollarda tavsiya qilamiz.

Tekshirish:

Port monitori orqali elektr manbasini ulaymiz, tezligini 19200 ga belgilaymiz va albatta “yangi qator” holatini belgilaymiz.

ATI buyrig‘ini kiritamiz va Enter tugmasini bosamiz. Keyin moduldan axborotni olishimiz mumkin.

Topshiriqlar

№	LED uchun portlar	Svetodiodlar soni	Kechikish vaqti, ms
1	2	1	200
2	3,8	2	100
3	2-8	6	500
4	2,4,6,7	4	2000
5	6,7,8	3	300
6	2,9	2	450
7	2	1	1000
8	3-7	4	850
9	8,9	2	600
10	3-9	6	520
11	4-8	4	430
12	2	1	1000
13	2-6	4	670
14	7,8,9	3	780
15	2	1	1000
16	5,7	2	1500
17	4,5,6	3	440
18	1,5,6,8	4	250
19	8,9	2	500
20	5	1	200

Nazorat savollari


1. GSM SIM800L modulini Arduino ga ulash sxemasini chizing va tushuntiring.
2. GSM modul tuzulishini tushuntiring.
3. Qo‘llanilish sohalari haqida ma’lumot bering.

Laboratoriya ishi № 12

Mavzu: O‘rnatiladigan ma’lumot uzatish va boshqarish tizimini loyihalash

Ishdan maqsad – Embedded Arduino asosida ma’lumot uzatish tamoyillarini o‘rganish va boshqaruv tizimlarini loyihalash.

Narsalar interneti (IoT) konsepsiyasiga asosan boshqariluvchi ob’ekt internetga ulanish imkoniyatiga ega bo‘lishi zarur. Shu sababli Arduino Ethernet dasturlanuvchi apparat ta’minotidan foydalanamiz. Bu holatda ob’ektni boshqarish tizimini quyidagi ko‘rinishda tasvirlaymiz.




12.1-rasm. Arduino Ethernet boshqaruv tizimi

Ushbu ishlab chiqilgan boshqaruv tizimi modelini real ob’ektlar misolida tadqiq qilamiz.

Arduino apparat platformasi asosida boshqaruv tizimini yaratish va ishlash samaradorligi

Arduino asosida asosan kichik o‘lchamli yoki ob’ektlarni nazorat qilish va boshqarish amalga oshiriladi. Arduino tizimi bilan ishlash uchun turli vazifalarni bajaruvchi datchiklar, sensorlar, boshqaruv motorlari, harakatlanuvchi qurilmalar mavjud. Ushbu qurilmalar yordamida turli ob’ektlarni boshqarirish va nazorat qilish mumkin.


Dissertatsiya ishining maqsadi Arduino asosida boshqaruv tizimini ishlab chiqish va tadqiq qilish bo‘lganligi sababli, biz quyida maketi keltirilgan tizimni ishlab chiqdik va uning ustida tadqiqotlar olib bordik (12.2- rasm).



12.2- rasm. Arduino asosidagi yaratilgan tizim maketi

Ushbu tizim RFID kirishni boshqarish tizimi bo‘lib, bugungi kunda turli muassasa va ob‘ektlarga kirishni boshqarish uchun qo‘llaniladi.

Tadqiqot uchun yaratilgan tizim quyidagi rasmda keltirilgan ko‘rinishda tuzilgan, ya’ni, RFID qurilmasi, Arduino Ethernet apparat ta’minoti, holatlar indikatorlari va boshqaruv markazi(12.3-rasm).



12.3- rasm. Tadqiqot uchun yaratilgan tizim tuzilishi

Ushbu algoritm asosida RFID tizimi uchun dasturiy ta'minot ishlab chiqilgan. Dastur kodi keltiramiz:

Arduino dasturi kodi

RFID ni o'qish

```
#include <SPI.h>
```

```
#include <rfid.h>
```

```
#include <LiquidCrystal.h>
```

```
#define SS_PIN 10
```

```
#define RST_PIN 9
```

```
RFID rfid(SS_PIN, RST_PIN);
```

```
LiquidCrystal lcd(7, 6, 5, 4, 3, 2);
```

```
// Setup variables:
```

```
int serNum0;
```

```
int serNum1;
```

```
int serNum2;
```

```
int serNum3;
```

```
int serNum4;
```

```
void setup()
```

```
{
```

```
Serial.begin(9600);
```

```
lcd.begin(16, 2);
```

```
SPI.begin();
```

```
rfid.init();
```

```
}
```

```
void loop()
```

```
{
```

```
if (rfid.isCard()) {
```

```
if (rfid.readCardSerial()) {
```

```
if (rfid.serNum[0] != serNum0
```

```
&& rfid.serNum[1] != serNum1
```

```
&& rfid.serNum[2] != serNum2
```

```
&& rfid.serNum[3] != serNum3
```

```
&& rfid.serNum[4] != serNum4
```

```
) {
```

```
/* With a new cardnumber, show it. */
```

```
Serial.println(" ");
```

```
Serial.println("Card found");
```

```
serNum0 = rfid.serNum[0];
```

```
serNum1 = rfid.serNum[1];
```



```

        serNum2 = rfid.serNum[2];
        serNum3 = rfid.serNum[3];
        serNum4 = rfid.serNum[4];
        //Serial.println(" ");
        Serial.println("Cardnumber:");
        Serial.print("Dec: ");
        Serial.print(rfid.serNum[0],DEC);
        Serial.print(", ");
        Serial.print(rfid.serNum[1],DEC);
        Serial.print(", ");
        Serial.print(rfid.serNum[2],DEC);
        Serial.print(", ");
        Serial.print(rfid.serNum[3],DEC);
        Serial.print(", ");
        Serial.print(rfid.serNum[4],DEC);
        Serial.println(" ");
    }
else {
    /* If we have the same ID, just write a dot. */
    Serial.print(".");
}
}
}
}
rfid.halt();
}
Ob'ektni boshqarish
#include <SoftwareSerial.h>
#include <Stepper_28BYJ.h>
int gRxPin = 10;
int gTxPin = 11;
SoftwareSerial BTSerial
(gRxPin, gTxPin);
#define steps 4078
Stepper_28BYJ stepper(steps, 2,3,4,5);
char input;
void setup()
{
    Serial.begin(9600);
    stepper.setSpeed(13);

```

```

BTSerial.begin(38400);
//Serial.println(">>start<<");
delay(300);
}
void loop() {
  if (BTSerial.available())
  {
    input = BTSerial.read();
    Serial.write(BTSerial.read());
    if(input == '1')
    {
      Serial.println("on");
      stepper.step(1000);
    }
    if(input == '0')
    {
      Serial.println("off");
      stepper.step(-1000);    }
    }
  }
}

```

Endi yaratilgan ushbu tizimni tadqiq qilishga o‘tamiz.

Avvalo, ushbu tizimni tadqiq qilishdan maqsad, Arduino asosidagi tarmoqli boshqaruv jarayonini baholash hisoblanadi. Shu sababli, yaratilgan tizim ustida bir qator eksprementlar o‘tkazamiz va quyidagilarni aniqlaymiz:

- lokal, simli va simsiz tarmoq orqali RFID identifikatsiya uchun ketadigan vaqt;
- tarmoqli boshqaruv tizimlarida kechikish
- loqa kanalining boshqarish jarayoniga ta’siri: Ethernet vs WiFi asosida;
- TCP asosida boshqaruv vaqti;
- UDP asosida boshqaruv vaqti;
- Tizimning ishlash samaradorligini analitik baholash.

Tajrivba №1.


Birinchi eksprement asosida RFID identifikatsiya vaqtini hisoblaymiz. Bir necha marta RFID qurilmasiga qilinganda tarmoq orqali kirishni boshqarish uchun ketadigan vaqtni hisoblaymiz.

O'tkazilgan eksperimentga ko'ra, quyidagi natija olingan (13.1-rasm).

Tajribalar soni	Vaqt (sekund)
10	20
20	35
30	60
40	85
50	110

13.2-rasm. RFID identifikatsiya soni va unga ketadigan vaqt.


RFID identifikatsiya sonining identifikatsiya uchun ketadigan vaqtga bog'lanishi quyidagi ko'rinishda bo'ladi (13.3-rasm).



13.3- rasm. RFID identifikatsiya sonining identifikatsiya uchun ketadigan vaqtga bog'lanishi.

Demak, identifikatsiya vaqtining identifikatsiya soniga nohiziqli bog'langan. Umumiy holatda oladigan bo'lsa k, o'lchangan vaqt sensor orqali o'qib olingan ID raqamini serverda tekshirib, mavjud bo'lsa, ob'ektga kirishga ruxsat bergungacha bo'lgan jarayonni o'z ichiga oladi.

ID raqamini tekshirish va ob'ektni harakatlantirishni lokal va tarmoq orqali boshqarishda olingan natijalar quyidagi rasmda keltirilgan (13.4- rasm).




13.4- rasm. Lokal va tarmoqli boshqaruv vaqti.

Ko'p adabiyotlarda boshqaruv vaqti sifatida lokal boshqaruv vaqti olinadi, ya'ni, ob'ektning bevosita o'zidan yoki uning yoniga o'rnatilgan kompyuterli boshqaruv tizimidan foydalanish tushuniladi. Shu sababli, tarmoqli boshqarish kechikishli boshqaruv hisoblanadi. Bunda tizimning tarmoq orqali boshqarishda yuzaga keladigan kechikishlar hisoblanadi.

Tajriba №2.

Ob'ektni tarmoq orqali boshqarish uchun simli va simsiz texnologiyalar qo'llanishi mumkin. Biz tuzilish jihatidan bir-biriga yaqin bo'lgan ikki texnologiya Ethernet va WiFi tarmoqlarida yuqoridagi eksprementni o'tkazdik. Simli va simsiz aloqa kanali boshqarish jarayoniga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Olingan natijalar quyidagi rasmda keltirilgan (13.5-rasm).



13.5- rasm. Ethernet va WiFi tarmoqlarida ob'ektni boshqarishda yuzaga keladigan kechikish

Eksprement uchun 10 Mbit/s tezlikli Arduino Ethernet va WiFi modullaridan foydalanildi. Olingan tadqiqotlardan ko'rinadiki, simsiz tarmoq orqali boshqarishda kechikish qiymati yuqori bo'ladi. Chunki, simsiz tarmoq muhitiga tashqi ta'sirlar yuqori bo'ladi. Eksprement asosida TCP va UDP protokollarining ob'ektni boshqarishga ta'siri aniqlangan.


Olingan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tarmoqli boshqaruv jarayonida UDP protokoli asosida ishlovchi tizimdan foydalanish kechikishning kam bo'lishiga olib keladi.

O'tkazilgan eksprementlar asosida asosan boshqarishda


bo‘ladigan kechikishlar va ularga tarmoq texnologiyalarining ta’siri ko‘rib chiqilgan.

Tarmoqli boshqaruv jarayonini baholash uchun tarmoqli boshqaruv tizimlari nazariyasi elementlaridan foydalaniladi. Ushbu nazariya asosida tarmoqli boshqaruv jarayonini hisoblash va baholash mumkin.

Biz UDP va TCP asosida boshqarishni baholash uchun tarmoqli boshqaruv tizimlari nazariyasi elementlaridan foydalandik. Ushbu nazariya asosida boshqaruv sifati, samaradorligi va boshqaruv jarayonida yuzaga keladigan kechikishlarni aniqlash mumkin. Tarmoqli boshqaruv tizimlari nazariyasi quyidagi modelga asosan tavsiflanadi.



13.6- rasm. Lokal, UDP va TCP asosida boshqaruv tizimlari eksprement natijalari.



13.7- rasm. Tarmoqli boshqaruv tizimlari nazariyasi elementlari

Ushbu nazariya asosida tarmoqli boshqaruv tizimlarida yuzaga keladigan kechikishni baholaymiz.

Tarmoqli boshqaruv tizimlarida umumiy kechikish – D_k :

$$D_k = D_k + D_b$$

Kontrollerga ob'ektdagi sensor ma'lumotini uzatish vaqti – D_k :

$$D_k = T_s + T_c + T_p + T_{qc} + T_{con}$$

Kontroller orqali ob'ektni boshqarish vaqti – D_b :

$$D_b = T_{bq} + T_c + T_p + T_t.$$

Hisoblashlar uchun boshqaruvda ishtirok etuvchi elementlarning standart ishlash vaqt qiymatlari olingan:

- $T_s = 0,2 - 0,3s$;
- $T_c = 0,3s$;
- $T_p = 0,05-0,1s$ oralig'ida, 10 Mbit/s kanal uchun olingan;
- $T_{qc} = 0,1-0,5s$;
- $T_{con} = 0,016s$;
- $T_{bq} = 0,01-0,02s$;
- $T_t = 0,1-1,3s$.

Avval TSR protokoli asosida boshqaruv tizimida bo'ladigan kechikishlarni hisoblaymiz. Ma'lumki, TSR protokoli asosida ishlovchi tarmoqlarda ma'lumot almashish dastlab ulanish orqali amalga oshiriladi shu sababli, tarmoqli boshqaruv tizimi modelini quyidagi ko'rinishda tasvirlaymiz. TCP asosida tarmoqli boshqaruv quyidagi formulalar asosida aniqlanadi.

TCP orqali sensordan ob'ekt holati ma'lumotini qabul qilishdagi kechikish:

$$D_k = T_s + T_c + T_p + T_{qc} + T_{con}.$$

Bu yerda:

- D_k –kontrollerga sensor ma'lumotini uzatish vaqti;
- T_s –sensor ishlash vaqti;
- T_c – ulanish vaqti;
- T_p – tarmoqda uzatish vaqti;
- T_{qc} –kontroller yoki boshqaruv tizimida qabul qilish va kutish vaqti;
- T_{con} - kontroller yoki boshqaruv tizimida ma'lumotni qayta ishlash vaqti.

TCP asosida kontroller orqali boshqarish vaqti:

$$D_b = T_{bq} + T_c + T_p + T_t.$$

Bu yerda:

- D_b –kontroller orqali boshqarish vaqti;

- T_c – ulanish vaqti (ulangan bo‘lsa, hisobga olinmaydi);
- T_p – tarmoqda uzatish vaqti;
- T_{bq} – boshqaruv qurilmasi ishlash vaqti;
- T_t – ob‘ektga ta’sir vaqti.

Hisoblashlar bo‘yicha TSR da boshqaruv vaqti - $D_{uk_TCP} = 2,235$ sekundga teng. Endi UDP asosida kechikish vaqtini hisoblaymiz.

Sensordan ob‘ekt holati ma’lumotini UDP asosida qabul qilishdagi kechikish:

$$D_k = T_s + T_p + T_{qc} + T_{con},$$

formula asosida hisoblanadi.

Bu yerda:

- D_k – kontrollerga sensor ma’lumotini uzatish vaqti;
- T_s – sensor ishlash vaqti;
- T_p – tarmoqda uzatish vaqti;
- T_{qc} – kontroller yoki boshqaruv tizimida qabul qilish va kutish vaqti;
- T_{con} - kontroller yoki boshqaruv tizimida ma’lumotni qayta ishlash vaqti.
- UDP asosida kontroller orqali boshqarish vaqti quyidagiga teng:

$$D_b = T_{bq} + T_p + T_t$$

Bu yerda:

- D_b – kontroller orqali boshqarish vaqti;
- T_p – tarmoqda uzatish vaqti;
- T_{bq} – boshqaruv qurilmasi ishlash vaqti;
- T_t – ob‘ektga ta’sir vaqti.

Hisoblash bo‘yicha UDR da boshqaruv vaqti - $D_{uk_UDP} = 2,062$ sekundga teng. Hisoblashlardan ko‘rinadiki, UDR asosida tarmoqli boshqaruv tizimlarini loyihalash samaralidir. Chunki UDR protokolida tarmoqda ma’lumot uzatish ulanishsiz amalga oshiriladi va bunda ulanishga ketadigan vaqt hisobga olinmaydi. Shuningdek, tarmoqli boshqaruv nazariyasi asosida tarmoqda ob‘ektlarni boshqarishda bo‘ladigan kechikishlar aniqlandi. UDP va TCP asosida ishlovchi tizimlarda ob‘ektlarni boshqarishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan kechikishlar hisoblandi va boshqaruv tizimlarini loyihalashda UDP dan foydalanish samarali ekanligi isbotlandi.

Talabalar uchun variantlar

Talabalar o'zlarining jurnalidagi tartib raqamlari bo'yicha belgilangan Arduino platasi chiqishlariga svetodiodni ulab, TCP va UDP asosida ularni boshqaradilar va holatni displeyda tasvirleydilar.

T/r	Pin raqami	T/r	Pin raqami
1.	1-2-4	16.	1-3-5
2.	2-5-6	17.	7-9-0
3.	3-6-9	18.	13-2-4
4.	2-4-11	19.	2-4-6
5.	0-10-4	20.	8-10-12
6.	8-9-10	21.	1-2-3
7.	10-1-8	22.	4-5-6
8.	2-9-4	23.	7-8-9
9.	3-8-5	24.	10-11-12
10.	4-7-9	25.	13-3-2
11.	5-6-13	26.	4-3-1
12.	2-12-2	27.	6-5-4
13.	3-13-1	28.	11-0-4
14.	4-12-5	29.	12-11-13
15.	5-0-2	30.	1-13-0

Laboratoriya mashg'ulotlari №14, №15.
O'rnatilgan tizimlarni loyihalash vositalari bilan tanishish va ularda ishlashni o'rganish. Sodda o'rnatilgan tizimlarni loyihalash

Ishdan maqsad: Sozlash platasi asosida mikrokontrollerni bitta elektrodini ma'lum vaqt oralig'ida yoqib o'chirish.

Nazariy ma'lumotlar

MK(mikrokontroller) – mikroprotessor tizimining soddarog'i bo'lib, unda hamma yoki tizimni ko'pchilik tugunlari bitta mikrosxema shaklida qilingan.

AVR – Atmel firmasining sakkiz bitli mikrokontrollerlari 1996 yilda yaratilgan.

AVR ni qisqartmasini bir qancha kengaytmasi mavjud. Kimdir Advanced Virtual RISC (Kengaytirilgan virtual RISC) deb takidlaydi, boshqalar AVRni yaratgan ikki insonni ismini bosh harflar olingan deyishadi Alf Egil Bogen Vegard Wollan RISC.

AVR mikrokontrollerlari Garvard arxitekturasiga ega (dastur va ma'lumotlar hotirasi alohida bo'ladi) buyriqlar tizimi RISC g'oyasiga yaqin. AVR protessori 32 ta 8 – bitdan iborat umumiy foydalanishga mo'ljallangan registirlarga ega, registirli fayllarga birlashtirilgan.

Ko'pchilik buyruqlar 1 ta yacheyka xotirani egalaydi(16 bit).


Ko'pchilik buyriqlar 1 davrda bajariladi.

Ularni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

AVR mikrokontrollerlarini bir nechta guruhlariga ajratish mumkin:

- Mantiqiy operatsiyalar;
- Mantiqiy va surish operatsiyasi;
- Bitlar bilan ishlash;
- Uzatish operatsiyalari;
- Boshqarishni uzatish operatsiyasi;
- Tizimni boshqarish operatsiyasi.

Periferiya qurilmalarini boshqarish ma'lumot adres maydoni asosida boshqariladi. Qulaylik uchun qisqartirilgan IN/OUT buyruqlardan foydalaniladi.



(XCK/T0) PB0	1	40	PA0 (ADC0)
(T1) PB1	2	39	PA1 (ADC1)
(INT2/AIN0) PB2	3	38	PA2 (ADC2)
(OC0/AIN1) PB3	4	37	PA3 (ADC3)
(SS) PB4	5	36	PA4 (ADC4)
(MOSI) PB5	6	35	PA5 (ADC5)
(MISO) PB6	7	34	PA6 (ADC6)
(SCK) PB7	8	33	PA7 (ADC7)
RESET	9	32	AREF
VCC	10	31	GND
GND	11	30	AVCC
XTAL2	12	29	PC7 (TOSC2)
XTAL1	13	28	PC6 (TOSC1)
(RXD) PD0	14	27	PC5 (TDI)
(TXD) PD1	15	26	PC4 (TDO)
(INT0) PD2	16	25	PC3 (TMS)
(INT1) PD3	17	24	PC2 (TCK)
(OC1B) PD4	18	23	PC1 (SDA)
(OC1A) PD5	19	22	PC0 (SCL)
(ICP1) PD6	20	21	PD7 (OC2)

1.1- rasm. O'quv platasining umumiy ko'rinishi.

```
#include<avr/io.h>
```

```
//Sarlavhali faylni ulash (Mkni registrlarini fizikmanzillarini ro'yhati)
```

```
#include<util/delay.h> // Sarlavhali faylni ulash
```

```
(_delay_ms() va _delay_us())funksiyalarini yozilmasi)
```

```

intmain(void)
//Asosiy funktsiya (dasturboshi)
{
DDRB= 0xFF; // PORTBni chiqish deb e'lon qilamiz
PORTB=0x00; //B portda 0[V] deb o'rnatamiz
while(1) // Uzliksiz davr

{
PORTB = 0x01; //PORTB0ga 5[V]berilsin
_delay_ms(50); //PORTB0 50 ms yoqib turilsin
PORTB = 0x00; //PORTB0ga 0[V]berilsin
_delay_ms(50); //PORTB0 50 ms o'chiq turilsin
}
}

```

Nazorat savollari

1. Mikrokontroller deb nimaga aytiladi?
2. AVR qisqartma so'zining ma'nosini ayta olasizmi?
3. AVR mikrokontrollerlari qaysi firma tomonidan ishlab chiqariladi?
4. AVR mikrokontrollerlarini qanday guruhlarga ajratish mumkin?
5. AVR mikrokontrollerlari qanday arxitekturaga asoslangan?

Variantlar


№	Kuchlanish	Yorug'lik diodlari soni va rangi	Qarshiliklar soni yorug'lik diodlariga mos ravishda	Kalitlar soni
1	9 volt	Green led 4x	Resistor 4x	SPST 2x
2	9 volt	Red led 2x, Green	Resistor 4x	SPST 1x
3	10.5 volt	Yellow led 3x	Resistor 3x	SPST 1x
4	9 volt	Red led 5x	Resistor 5x	SPST 1x
5	11 volt	Green led 3x	Resistor 3x	SPST 2x
6	9 volt	Red led 1x, Green	Resistor 2x	SPST 1x
7	10.5 volt	Red led 2x, Green	Resistor 4x	SPST 1x


8	9 volt	Yellow led 5x	Resistor 5x	SPST 2x
9	11 volt	Green led 3x	Resistor 3x	SPST 1x
10	9 volt	Red led 5x	Resistor 5x	SPST 1x
11	8 volt	Yellow led 5x	Resistor 5x	SPST 2x
12	9 volt	Yellow led 3x	Resistor 3x	SPST 1x
13	8 volt	Green led 4x	Resistor 4x	SPST 1x
14	12 volt	Red led 1x, Green	Resistor 2x	SPST 1x
15	11 volt	Yellow led 5x	Resistor 5x	SPST 2x
16	12 volt	Green led 3x	Resistor 3x	SPST 1x
17	9.6 volt	Green led 6x	Resistor 6x	SPST 1x
18	12 volt	Red led 2x, Green	Resistor 4x	SPST 1x
19	10.5 volt	Green led 6x	Resistor 6x	SPST 2x
20	8 volt	Yellow led 3x	Resistor 3x	SPST 1x
21	11 volt	Red led 5x	Resistor 5x	SPST 1x
22	12 volt	Green led 3x	Resistor 3x	SPST 1x
23	11.1 volt	Yellow led 5x	Resistor 5x	SPST 2x
24	10.5 volt	Red led 5x	Resistor 5x	SPST 1x
25	11.1 volt	Green led 3x	Resistor 3x	SPST 1x
26	12 volt	Red led 1x, Green	Resistor 2x	SPST 1x
27	9.6 volt	Red led 5x	Resistor 5x	SPST 2x
28	8 volt	Green led 4x	Resistor 4x	SPST 1x
29	11 volt	Yellow led 3x	Resistor 3x	SPST 1x
30	9.6 volt	Red led 2x, Green led 2x	Resistor 4x	SPST 2x

Laboratoriya mashg'ulotlari №16, №17

Mavzu: Sodda o'rnatilgan tizimlarni loyihalash

Ishdan maqsad: Sozlash platasi asosida mikrokontrollerni tugmacha va svetodioldniga mantiqiy nol berish orqali mikrokontrollerni boshqa elektrodini yoqish.






2.1- rasm. Atmega 16 mikrokontrolleri

```
#include<avr/io.h> //Sarlavhali faylni ulash (MKni registirlarini fizik
manzillarini ro‘yxati)
#include<util/delay.h> // Sarlavhali faylni ulash (_delay_ms() va
_delay_us())funksiyalarini yozilmasi)
intmain(void) //Asosiy funktsiya (dastur boshi)
{
DDRA= 0xFF; // PORTAni chiqish deb e’lon qilamiz
PORTA=0x00; //A portda 0[V] deb o’rnatamiz
DDRB= 0x00; // PORTBni kirish deb e’lonqilamiz
PORTB=0xFF; //B portda1[V] deb o’rnatamiz
while(1) // Uzliksiz davr
{
PORTA = ~ PORTB; //~ beligirazyadliinvertirlash
}
}
```

Sozlash platasi asosida mikrokontrollerni bitta elektrodi orqali tovushni hosil qilish.



(XCK/T0) PB0	1	40	PA0 (ADC0)
(T1) PB1	2	39	PA1 (ADC1)
(INT2/AIN0) PB2	3	38	PA2 (ADC2)
(OC0/AIN1) PB3	4	37	PA3 (ADC3)
(\overline{SS}) PB4	5	36	PA4 (ADC4)
(MOSI) PB5	6	35	PA5 (ADC5)
(MISO) PB6	7	34	PA6 (ADC6)
(SCK) PB7	8	33	PA7 (ADC7)
RESET	9	32	AREF
VCC	10	31	GND
GND	11	30	AVCC
XTAL2	12	29	PC7 (TOSC2)
XTAL1	13	28	PC6 (TOSC1)
(RXD) PD0	14	27	PC5 (TDI)
(TXD) PD1	15	26	PC4 (TDO)
(INT0) PD2	16	25	PC3 (TMS)
(INT1) PD3	17	24	PC2 (TCK)
(OC1B) PD4	18	23	PC1 (SDA)
(OC1A) PD5	19	22	PC0 (SCL)
(ICP1) PD6	20	21	PD7 (OC2)

2.2- rasm. Ovoz signallarini ulash jarayonlari.

#include<avr/io.h> //Sarlavhali faylni ulash
(MKnregistrlarinifizikmanzillariniro'yhati)

```

#include<util/delay.h> // Sarlavhali faylni ulash (_delay_ms() va
_delay_us())funksiyalarini yozilmasi)
intmain(void) //Asosiyfunksiya (dasturboshi)
{
DDRB= 0xFF; // PORTBni chiqish deb e'lonqilamiz
PORTB=0x00; //Bportda 0[V] deb o'rnatamiz
while(1) // Uzliksiz davr
{
PORTB = 0x01; //PORTB0ga 5[V]berilsin
_delay_ms(50); //PORTB0 50 ms yoqib turilsin
PORTB = 0x00; //PORTB0ga 0[V]berilsin
_delay_ms(50); //PORTB0 50 ms o'chiq turilsin
}
}

```

Nazorat savollari

1. Intmain(void) buyrug'i nima vazifani bajaradi?
2. Portlarni e'lon qilish uchun qaysi buyruqdan foydalaniladi?
3. Delay buyrug'i qanday vazifani bajaradi?
4. PORTB = 0x00 ushbu buyruqqa izoh bering.

Topshiriq

1. Jurnaldaagi tartib raqamingizga mos bo'lgan elektrodni yoqing va u jurnaldaagi tartib raqamingizga mos ravishda(shuncha sekund vaqt oralig'ida) bir marta yonib-o'chishini ko'rsatib bering.

2. Jurnaldaagi tartib raqamingizga mos bo'lgan elektrodni yoqing va u jurnaldaagi tartib raqamingizga mos ravishda(shuncha marta) yonib-o'chishini ko'rsatib bering.

Laboratoriya mashg'ulotlari № 18, №19
Mavzu: Embedded Arduino board. LCD displey asosida tizimlarni loyihalash

Ishdan maqsad. Arduino UNO yordamida LCD displey asosida tizimlarni loyihalash.

Arduino IDE muhitida LCD-displeya Hitachi HD44780 mavjud. LCD displey tiniqligi boshqaruv kirishiga berilayotgan kuchlanish o'lchamiga bog'liq. Kuchlanish 0.5-1 V oarlig'ida bo'lishi kerak, lekin muhit darajasiga ham bog'liqdir. 5-jadvalda LCD-Arduino pinouti keltirilgan


5.1. -jadval.
LCD-Arduino pinout

LCD Pin	Simvol	Naznachenie	Arduino Pin
1	Vss	umumiy (0 V)	umumiy (0 V)
2	Vdd	Pitanie (4.5 – 5.5 V)	+5V
3	Vo	Uprav.kontrastnostyu	9
4	RS	H/L register select signal	12
5	R/W	H/L read/write signal	Umumiy (0 V)
6	E	H/L enablesignal	11
11	DB4	H/L data bus for 4-bit mode	5
12	DB5	H/L data bus for 4--bit mode	4
13	DB6	H/L data bus for 4-bit mode	3
14	DB7	H/L data bus for 4-bit mode	2

Liquid Crystal kutubxonasi barcha LCD Hitachi HD44780 bilan ishlaydi.

Ulanish sxemasi:

- * LCD RS pin raqamli chiqish 12
- * LCD Enable pin raqamli chiqish 11
- * LCD R/W umumiy
- * LCD VO pin (pin 3) ShIMga-chiqish 9



5.1 -rasm. Ulanish jarayoni

- * LCD D4 pin raqamli chiqish 5
- * LCD D5 pin raqamli chiqish 4
- * LCD D6 pin raqamli chiqish 3
- * LCD D7 pin raqamli chiqish 2
- */

```
#include      // kutubxonani ulaymiz
```

```
Liquid Crystalled (12, 11, 5, 4, 3, 2);      // initsializatsiyalash
```

```
Void setup()
```

```
{
pinMode(9, OUTPUT);
analogWrite(9, 50); // ShIM chiqishga o‘rnatish
lcd.begin(16, 2); // qator va ustunlar miqdorini o‘rnatish
lcd.print(" HobbyTronics");//ma'lumotlarni LCD ga uzatish }
voidloop() {
// kursorni v 0-chi ustunga, 1 qator ( 0 dan boshlanadi)
lcd.setCursor(0, 1);
lcd.print(millis()/1000); // qayta yuklashdan so‘ng sekund chop etish
}
```

Nazorat savollari

1. LCD displey tiniqligi nimaga bog‘liq?
2. LCD Hitachi HD44780 qaysi kutubxona bilan ishlaydi?
3. LCD-Arduino pinauti haqida nimalar bilasiz?
4. Arduino muhiti qanday muhit?

Topshiriqlar

1. "Smart uy" loyihasiga asosan maxsus qurilma tayyorlanmoqda. Bu uskumaning vazifasi yoritish chiroqlari ish vaqtini hisoblash orqali elektr energiya iste'molini aniqlashdan iborat. Qurilma algoritmiga asosan takt tugma bosilganda elektr chiroq yonishi va mikrokontroller schetchigi bittaga oshishi kerak. Tugmaning navbatdagi bosilishi chiroqni o'chiradi. Yuqorida bayon qilingan algoritm asosida mikrokontroller uchun **bosh sikl**dastur fragmentini tuzing. Inson qo'li titrashi hisobiga tugma bosilganda ulab-uzishlar soni oshib ketadi. Dasturda bu effekt mavjud emas deb hisoblash mumkin.

Namunaviy javob:

```
1.Bosh siklda davriy ravishda tugma holatini tekshirish.
ATmega16A, 16MHz

main(){
int schetchik=0;
int tugma_status=1; // 1=tugma bosilmangan, 0=tugma bosilgan
...

DDRD=0b00000010; //PORTD.1- chiqish rejimida,chiroq
uchun
//PORTD.2- kirish rejimida,tugma uchun

PORTD=0b00000100; //PORTD.1 - chiroq dastlabki holatda
o'chgan
//PORTD.2 - kirish porti manbaga ichki rezistor
// orqali ulangan

...
while ()
{
if (PORTD.2==0) //agar tugma bosilgan bo'lsa
{
if (tugma_status==1)
{
tugma_status==0;
schetchik++; // schetchik qiymatini ishiramiz
if (PORTD.1==0xff) {PORTD.1=0;} // chiroqni
o'chiramiz
else PORTD.1=0xff; //yoki yoqamiz
```

```

}
    else
    {
        //tugma bosilgan holatcha turibdi
    }
}
else tugma_status=1; //tugma bosilmagan
};

```

2. "Smart uy" loyahasiga asosan maxsus qurilma tayyorlanmoqda. Bu uskumaning vazifasi yoritish chiroqlari ish vaqtini hisoblash orqali elektr energiya iste'molini aniqlashdan iborat. Qurilma algoritmiga asosan takt tugma bosilganda elektr chiroq yonishi va mikrokontroller schetchigi bittaga oshishi kerak. Tugmaning navbatdagi bosilishi chiroqni o'chiradi. Yuqorida bayon qilingan algoritm asosida mikrokontroller uchun **taymer orqali** tugma holatini tekshirish dastur fragmentini tuzing. Inson qo'li titrashi hisobiga tugma bosilganda ulab-uzishlar soni oshib ketadi. Dasturda bu effekt mavjud emas deb hisoblash mumkin.

Namunaviy javob:

```

2. Timer orqali har 100 ms da tugma holatini tekshirish.
ATmega16A, 16MHz
...
//Global o'zgaruvchilar
int schetchik=0;
int tugma_status=1; // 1=tugma bosilmangan, 0=tugma bosilgan
...
//Timer 1 bo'yicha uzilishga ishlov berish funksiyasi
interrupt [TIM1_OVF] void timer1_ovf_isr(void)
{
    TCNT1H=0x9E58 >> 8; // Timer1ni boshlang'ich holatga
    o'tkazish
    TCNT1L=0x9E58 & 0xff;
    if (PORTD.2==0) //agar tugma bosilgan bo'lsa
    {
        if (tugma_status==1)
        {
            tugma_status==0;
            schetchik++; // schetchik qiymatini ishiramiz
            PORTD.1=(PORTD.1==0xff)?(0):(0xff);

```

```

        // chiroqni yoqamiz yoki o'chiramiz
    }
    else
    {
        //tugma bosilgan holatcha turibdi
    }
} else tugma_status=1; //tugma bosilmagan
}
...
main(){
...
DDRD=0b00000010; //PORTD.1- chiqish rejimida,chiroq
uchun
//PORTD.2- kirish rejimida,tugma uchun

PORTD=0b00000100; //PORTD.1 - chiroq dastlabki holatda
o'chgan
//PORTD.2 - kirish porti manbaga ichki rezistor
// orqali ulangan

...
// Timer1: 250 kHz, Uzilish= har 100ms da, hisoblagich to'lganda
TCCR1A=(0<<COM1A1) | (0<<COM1A0) | (0<<COM1B1) |
(0<<COM1B0) |
(0<<WGM11) | (0<<WGM10);
TCCR1B=(0<<ICNC1) | (0<<ICES1) | (0<<WGM13) |
(0<<WGM12) |
(0<<CS12) | (1<<CS11) | (1<<CS10);
TCNT1H=0x9E;
TCNT1L=0x58;
TIMSK=(0<<OCIE2) | (0<<TOIE2) | (0<<TICIE1) | (0<<OCIE1A)
|
(0<<OCIE1B) | (1<<TOIE1) | (0<<OCIE0) | (0<<TOIE0);
#asm("sei") // uzilishlarga global ruxsat berish
while ()
{
    /* tugma holati tekshirilguncha
    qurilma boshqa funksiyalarini bajarishi mumkin
    */ zahirada 100 msek vaqt bor
};

```

3."Smart uy" loyihasiga asosan maxsus qurilma tayyorlanmoqda. Bu uskumaning vazifasi yoritish chiroqlari ish vaqtini hisoblash orqali elektr energiya iste'molini aniqlashdan iborat. Qurilma algoritmiga asosan takt tugma bosilganda elektr chiroq yonishi va mikrokontroller schetchigi bittaga oshishi kerak. Tugmaning navbatdagi bosilishi chiroqni o'chiradi. Yuqorida bayon qilingan algoritm asosida mikrokontroller uchun **tashqi uzilish manbasi (external IRQ)** yordamida ishlovchi dastur fragmentini tuzing. Inson qo'li titrashi hisobiga tugma bosilganda ulab-uzishlar soni oshib ketadi. Dasturda bu effekt mavjud emas deb hisoblash mumkin.

Namunaviy javob:

```

3. "Any change" IRQ orqali tugma holatini tekshirish.
ATmega16A, 16MHz
...
//Global o'zgaruvchilar
int schetchik=0;
int tugma_status=1; // 1=tugma bosilmangan, 0=tugma bosilgan
...
/* PORTD.2 ga berilgan signal mantiqiy o'zgarganda (0->1 yoki
1->0)
uzulishlarga ishlov berish funksiyasi ishga tushadi. */
interrupt [EXT_INT0] void ext_int0_isr(void)
{
    if (PORTD.2==0) //agar tugma bosilgan bo'lsa
    {
        if (tugma_status==1)
        {
            tugma_status==0;
            schetchik++; // schetchik qiymatini ishiramiz
            PORTD^=(1<PORTD.2); // chiroqni yoqamiz yoki
o'chiramiz
        }
        else
        {
            //tugma bosilgan holatcha turibdi
        }
    } else tugma_status=1; //tugma bosilmagan
}
...

```

```

main(){
...
DDRD=0b00000010;    //PORTD.1- chiqish rejimida,chiroq
uchun
                //PORTD.2- kirish rejimida,tugma uchun
PORTD=0b00000100; //PORTD.1 - chiroq dastlabki holatda
o'chgan
                //PORTD.2 - kirish porti manbaga ichki rezistor
                //      orqali ulangan
// IRQ, INT0 : Any change,
GICR|=(0<<INT1) | (1<<INT0) | (0<<INT2);
MCUCR=(0<<ISC11) | (0<<ISC10) | (0<<ISC01) | (1<<ISC00);
MCUCSR=(0<<ISC2);
GIFR=(0<<INTF1) | (1<<INTF0) | (0<<INTF2);
#asm("sei") // uzilishlarga global ruxsat berish
while ()
{
    /* tugma holati tekshirilguncha
    qurilma boshqa funksiyalarini bajarishi mumkin
    */ zahirada ancha vaqt bo'ladi
};

```

4. Elektronika va sxematexnika fanlari uchun turli shakldagi signallarni hosil qiluvchi generator tayyorlash vazifasi qo'yildi. Generator bir vaqtda 3ta chiqish kanali orqali signallarni hosil qilishi kerak. Maksimal generatsiyalanadigan signal chastotasi 1Mhz. Birinchi kanalda sinusoidal funksiyaga o'xshash bo'lgan signallarni generatsiyalash dasturini AVR ATmega oilasiga mansub bo'lgan mikrokontroller asosida tuzing.

5. Elektronika va sxematexnika fanlari uchun turli shakldagi signallarni hosil qiluvchi generator tayyorlash vazifasi qo'yildi. Generator bir vaqtda 3ta chiqish kanali orqali signallarni hosil qilishi kerak. Maksimal generatsiyalanadigan signal chastotasi 1Mhz. Birinchi kanalda $y=\sin(x)$, ikkinchi kanalda $y=\cos(x)$ funksiyaga o'xshash bo'lgan signallarni generatsiyalash dasturini AVR ATmega oilasiga mansub bo'lgan mikrokontroller asosida tuzing.

6. Elektronika va sxematexnika fanlari uchun turli shakldagi signallarni hosil qiluvchi generator tayyorlash vazifasi qo'yildi. Generator bir vaqtda 3ta chiqish kanali orqali signallarni hosil qilishi

kerak. Maksimal generatsiyalanadigan signal chastotasi 1Mhz. Birinchi kanalda $y=\sin(x)$, ikkinchi kanalda $y=\cos(x)$ funksiyaga o'xshash va uchunchi kanalda to'ldirish koeffisienti $D=40\%$ bo'lgan impuls signallarni generatsiyalash dasturini AVR ATmega oilasiga mansub bo'lgan mikrokontroller asosida tuzing.

7. Klimitni nazorat qilish tizimini yaratish ustida ish olib borilmoqda. Qurilma havo harorati va namligini o'lchasi, temperature 50°C dan ko'tarilganda yoki absolyut namlik 75% dan oshganda signal beruvchi chiroq yonishi kerak. Havo temperaturasini aniqlash uchun T-tipidagi termoparadan foydalanish zarurati tug'ildi. Bir nechta passiv komponentlar va mikrokontroller asosida datchikdan foydalanib havo haroratini o'lchash sxemasi va dasturini tuzing.

8. Klimitni nazorat qilish tizimini yaratish ustida ish olib borilmoqda. Qurilma havo harorati va namligini o'lchasi, agar temperature 50°C dan ko'tarilganda yoki absolyut namlik 75% dan oshganda signal beruvchi chiroq yonishi kerak. Havoning nisbiy namligini aniqlash uchun sig'imli passiv namlik datchigidan foydalanish zarurati tug'ildi. Bir nechta passiv komponentlar va mikrokontroller asosida datchikdan foydalanib havoning namligini o'lchash sxemasi va dasturini tuzing.

9. Klimitni nazorat qilish tizimini yaratish ustida ish olib borilmoqda. Qurilma havo harorati va namligini o'lchasi, agar temperature 50°C dan ko'tarilganda yoki absolyut namlik 75% dan oshganda signal beruvchi chiroq yonishi kerak. Havo temperaturasini aniqlash uchun T-tipidagi termoparadan, havoning nisbiy namligini aniqlash uchun sig'imli passiv namlik datchigidan foydalanish zarurati tug'ildi. Bir nechta passiv komponentlar va mikrokontroller asosida datchikdan foydalanib havo harorati, namligini o'lchash va signalizatsiya uchun sxema va dastur tuzing.

Har birida 8tdan nuqtaga ega bo'lgan segmentli indikatorlar orqali 5 ta simvulli axborotni ko'rsatish talab etilmoqda. AVR ATmega oilasiga mansub bo'lgan mikrokontroller asosida qurilma uchun dastur tuzing.

Laboratoriya mashg'ulotlari №20, №21
Mavzu: O'rnatilgan ma'lumot uzatish tizimini loyihalash
(Interfeyslar USART va SPI)


Ishdan maqsad: Kompyuter SOM porti asosida Arduino ga ulangan qurilmalarni boshqarish.

Arduino — apparat hisoblash platformasi hisoblanib, asosiy komponentlari oddiy kiritish/chiqarish platasi va Processing/Wiring dasturiy tilni qo'llaydigan dasturiy muhit hisoblanadi. Arduino avtonom interaktiv ob'ektlarni yaratishda to'g'ridan to'g'ri kompyuterga ulangan holda dasturlash jarayonini amalga oshirish mumkin bo'lgan qurilma hisoblanadi (masalan, Macromedia Flash, Processing, Max/MSP, Pure Data, SuperCollider). Mikrokontroller Atmega 328 arzon va qo'llanishga qulay hisoblanadi.

Arduino — elektron konstruktor va foydalanuvchi uchun elektron qurilmalarni yaratish mumkin bo'lgan platforma hisoblanadi. Platforma jahonda qulayligi va dasturiy tillarining oddiyligi uchun keng qo'llaniladi. Qurilma programmatorsiz USB orqali dasturlanadi.

Platadagi mikrokontroller Wiring dasturiy tilga asoslangan Arduino tilida dasturlanadi.



Arduino platformasi apparat qismi Arduino platformasining bir necha versiyalari mavjud bo'lib, ulardan Leonardo AT mega 32u4 mikrokontrolleri bazasi asosida yaratilgan. Uno esa Atmel AT mega 328 mikrokontrolleri asosida yaratilgan.



7.1- rasm. Arduino platformasi

Arduino platformasi versiyalari:

- **Due** — yangi plata ARM mikroprotsessori asosida 32bit Cortex-M3 ARM SAM3U4E.
- **Leonardo** — Arduino yangi platforma ATmega 32u4 mikrokontroller asosida .
- **Yun** - yangi plata, o‘rnatilgan WiFi ni qo‘llaydi ATmega 32u4 and the Atheros AR9331 asosida.
- **Micro** — AT mega32u4 asosidagi yangi loyiha .
- **Uno** —Arduino USB ko‘p foydalaniladigan versiya. Uni o‘zida standart port USB saqlaydi. Platforma o‘z navbatida kengaytirilgan platalar va foydalanuvchi turli funksiyalari bilan to‘ldirilishi mumkin.
- **Nano** — kompakt platforma hisoblanib, maket ko‘rinishida foydalaniladi. Nano kompyuterga USB Mini-B kabeli asosida ulanadi.




7.2.- rasm. Arduino platasi umumiy ko‘rinishi

Kengaytirilgan platalar asosan turli qurilmalarni boshqarishda va ma'lumotlar olishda foydalaniladi:

- Plata WiFi - 802.11 b/g simsiz tarmoq standarti bilan ulanishda foydalaniladi.

Plata Xbee Shield - Maxstream Xbee Zigbee modullari asosida bir necha Arduino bilan 35 metr radiusdagi maydonni va 90 metr maydondan tashqari simsiz aloqani ta'minlaydi.



- Plata Motor Shield – doimiy tok dvigatellarini boshqarish va datchiklar holatini o'qishda foydalaniladi.
- Plata Ethernet Shield – internetga ulanishni ta'minlaydi.



8.1- rasm. Plata Ethernet Shield

Keltiriladigan masalalarda svetodiodlarni boshqarishda murakkab dasturlash jarayonlari orqali ko'rish mumkin.


Ishni bajarish uchun 5 ta svetodiod (turli rangli) va 5 rezistor (rasm 7.1).



8.2- rasm. Arduino ga ulangan qurilmalarni boshqarish

Keltirilgan sxemada 6 svetodioldlar raqamli pinlarga 2-7 ulangan. Ushbu ulanish pin (digitalWrite) dastur asosida kuchlanish beriladi va tok rezistor asosida oqib o'tib svetodiold anod (+) ga uzatiladi. Elektrik

tok svetodiod yorug'lik energiyasiga aylanadi (fotonlar), shuning uchun katod (—) yerga (Ground) ulanishi kerak.



8.2- rasm. Arduinoga ulangan qurilmalarni boshqarish prinsipial sxemasi.

Mavjud 6 svetodioddan, 1- chini pin №2 ga (yoki pin №4 ga), 2- chi svetodiod pin №3 ga (yoki pin №5 ga), 3- chi pin №4 ga (yoki №6 ga), 4- chi pin №5 ga (yoki pin №7 ga), 5- chi pin №6 ga (yoki pin №8 ga) va 6- chi svetodiod pin №7 ga.

Qurilmani dasturiy ta'minoti Arduino IDE muhitida bajariladi va Servis menyusida Monitor porti mavjud (Ctrl+Shift+M).

COM-port asosida ulangan Arduinoga kompyuter orqali ixtiyoriy simvollarni uzatish mumkin. Uzatish natijasida ba'zi bir harakatlarni boshqarish mumkin, masalan «1» raqami svetodiodni yoqish va «0» raqami svetodiodni o'chirish vazifasini bajarladi.


Uzatilgan simvollar to'plami svetodioldarni boshqaradi.

Monitor COM-porta orqali Arduino IDE ga uzatilgan masalan «10110» qator svetodiodlar №1, 3 va 4 yoqadi va svetodiodlar №2, №5 (pozitsiyaga nisbatan) o'chiradi.


Dastur qismida klass Si – Serial dan foydalaniladi:

- **Serial.begin** – portdan (COM-porta) foydalanishga tayyorlik;
- **Serial.print** – ma'lumotlarni Arduino dan kompyuterga uzatish va Monitor portda aks ettirish;

- **Serial.read** – Arduino yordamida ma'lumotlarni kompyuterdan o'qish (masalan: «10110» qatorni o'qish). Serial funksiyasi to'plami Arduino bilan kompyuter orasidagi aloqachi vazifasini bajaradi.



8.3- rasm. Monitor porti




8.4-rasm. Arduino platasiga ulanish

Barcha Arduino platalari hech bo'lmaganda bitta ketma-ket portga ega port UART yoki USART. Serial ma'lumot almashish uchun raqamli portlardan 0 (RX) va 1 (TX), USB foydalaniladi.

Plata Arduino Mega o'zida 3-ta ketma ket portlarni saqlaydi:

Serial1 port 19 (RX) va 18 (TX), Serial2 port 17 (RX) va 16 (TX), Serial3 port 15 (RX) va 14 (TX). Keltirilgan portlarni kompyuter bilan aloqa uchun foydalanishda qo'shimcha adapterlar USB-to-serial ishlatiladi, chunki Mega platasi o'rnatilgan tizimiga ulanmagan. Ketma-ket interfeys orqali tashqi qurilmalar bilan aloqa o'rnatish uchun qurilmadagi TX portni tashqi qurilma RX porti bilan ulang.



8.5- rasm. Portlarni ulash jarayonlari

Nazorat savollari

1. Arduino muhitida qurilmalar bilan ishlayotganda katod nimaga ulanishi kerak?
2. **Serial.begin** buyrug'i nima vazifa bajaradi?
3. **Serial.print** buyrug'i nima vazifa bajaradi?
4. **Serial.read** buyrug'i nima vazifa bajaradi?
5. Svetodioldlarni nimalar boshqaradi?

Topshiriqlar

1. Haroratni monitoring qilish uchun kun davomida termodatchikdan 24 marotaba ma'lumot qabul qilib oldindi va mikrokontroller xotirasida massiv shaklida saqlanmoqda. Berilgan ma'lumotlarni haroratning kamayish tartibida sortirovkalab boshqa massivga saqlovchi dastur fragmentini tuzing.

2. Haroratni monitoring qilish uchun kun davomida termodatchikdan 24 marotaba ma'lumot qabul qilib oldindi va mikrokontroller xotirasida massiv shaklida saqlanmoqda. Ma'lumotlar havo harorati va qabul qilingan vaqt (soat) dan iborat. Berilgan ma'lumotlarni haroratning oshishi tartibida sortirovkalab boshqa massivga saqlovchi dastur fragmentini tuzing.

3. Haroratni monitoring qilish uchun kun davomida termodatchikdan 24 marotaba ma'lumot qabul qilib oldindi va mikrokontroller xotirasida massiv shaklida saqlanmoqda. Ma'lumotlar havo harorati va qabul qilingan vaqt (soat:min:sek) dan iborat. Berilgan ma'lumotlarni haroratning oshishi tartibida sortirovkalab boshqa massivga saqlovchi dastur fragmentini tuzing.

4. Ilmiy-taqdiqot laboratoriyasidagi maxsus kabinada turli gazlardan iborat muhit hosil qilingan. Tarkibini barqaror saqlab turish maqsadida o'rtanilgan tizim ishlab chiqish zarur. Kabina ichida elektron qurilmalardan foydalanish imkoni mavjud emas. Kabinaga kirish eshigi ochilib 5 sekund ichida yopilmasa gazlar tarkibi o'zgarishi ni hisobga olib belgilangan vaqtdan oshganda signalizatsiya ishga tushishi zarur bo'lgan dasturni bosh siklda tuzing.

5. Ilmiy-taqdiqot laboratoriyasidagi maxsus kabinada turli gazlardan iborat muhit hosil qilingan. Tarkibini barqaror saqlab turish maqsadida o'rtanilgan tizim ishlab chiqish zarur. Kabina ichida elektron qurilmalardan foydalanish imkoni mavjud emas. Kabinaga kirish eshigi ochilib 5 sekund ichida yopilmasa gazlar tarkibi o'zgarishi ni hisobga olib belgilangan vaqtdan oshganda signalizatsiya ishga tushishi zarur bo'lgan dasturni taymer asosida tuzing.

6. Ilmiy-taqdiqot laboratoriyasidagi maxsus kabinada turli gazlardan iborat muhit hosil qilingan. Tarkibini barqaror saqlab turish maqsadida o'rtanilgan tizim ishlab chiqish zarur. Kabina ichida elektron qurilmalardan foydalanish imkoni mavjud emas. Kabinaga kirish eshigi ochilib 5 sekund ichida yopilmasa gazlar tarkibi o'zgarishi ni hisobga

olib belgilangan vaqtdan oshganda signalizatsiya ishga tushishi zarur bo'lgan dasturni tashqi uzilishlar (external IRQ) asosida tuzing.

7. Aqlli ventilyator loyihasini amalga oshirish uchun maket tayyorlanmoqda. Kichiq quvvatli elektromotorni turli tezlikda boshqarish dasturini bosh siklda AVR ATmega oilasiga mansub bo'lgan mikrokontroller asosida tuzing.

8. Aqlli ventilyator loyihasini amalga oshirish uchun maket tayyorlanmoqda. Kichiq quvvatli elektromotorni turli tezlikda boshqarish dasturini taymer yordamida AVR ATmega oilasiga mansub bo'lgan mikrokontroller asosida tuzing.

9. Aqlli ventilyator loyihasini amalga oshirish uchun maket tayyorlanmoqda. Qurilma DS18B20 termodatchigi va kichiq quvvatli elektromotordan iborat. Harorat 25°C dan 35°C gacha o'zgarganda elektromotor aylanish tezligini 50% dan 100% gacha o'zgartiradigan dasturini AVR ATmega oilasiga mansub bo'lgan mikrokontroller asosida tuzing.

10. Signalizatsiya tizimini ishlab chiqarish masalasi qo'yildi. Unga ko'ra maxsus xona eshigiga o'rnatiladigan signalizatsion qurilma eshik ochilgach o'rnatilgan vaqtdan oshib ketganda yorug'lik indikatsiyasini amalga oshirish kerak. Eshik ochilib yopilishini aniqlash maqsadida gerikondan foydalanilmoqda. AVR ATmega oilasiga mansub bo'lgan mikrokontroller asosida dastur tuzing.

11. Signalizatsiya tizimini ishlab chiqarish masalasi qo'yildi. Unga ko'ra maxsus xona eshigiga o'rnatiladigan signalizatsion qurilma eshik ochilgach o'rnatilgan vaqtdan oshib ketganda yorug'lik va tovush indikatsiyasini amalga oshirish kerak. Eshik ochilib yopilishini aniqlash maqsadida gerikondan foydalanilmoqda. AVR ATmega oilasiga mansub bo'lgan mikrokontroller asosida dastur tuzing.

12. Signalizatsiya tizimini ishlab chiqarish masalasi qo'yildi. Unga ko'ra maxsus xona eshigiga o'rnatiladigan signalizatsion qurilma eshik ochilgach o'rnatilgan vaqtdan oshib ketganda yorug'lik va tovush indikatsiyasini amalga oshirish kerak. Eshik ochilib yopilishini aniqlash maqsadida gerikondan foydalanilmoqda. Signalizatsiya ishga tushish vaqti potensiometr yordamida o'rnatiladi. AVR ATmega oilasiga mansub bo'lgan mikrokontroller asosida dastur tuzing.

13. Kichik ilmiy laboratoriya uchun magnit maydon kuchlanganligini aniqlovchi katta aniqlikka ega bo'lmagan qurilma tayyorlashga ehtiyoj tug'ildi. Buning uchun olimlar bir qancha

gerkonlardan foydalanishni maqul ko‘rishdi. Ushbu qurilmaning ishlash algoritmini tuzing va dastur fragmentini yozing.

14. Kichik ilmiy laboratoriya uchun magnit maydon kuchlanganligini aniqlovchi katta aniqlikka ega bo‘lmagan qurilma tayyorlashga ehtiyoj tug‘ildi. Buning uchun olimlar bir qancha gerkonlardan foydalanishni maqul ko‘rishdi. Olingan natijalarni yorug‘lik diodlaridan iborat bo‘lgan lineyka asosida tasvirlashmoqchi. Ushbu qurilmaning ishlash algoritmini tuzing va dastur fragmentini yozing.

15. Kichik ilmiy laboratoriya uchun magnit maydon kuchlanganligini aniqlovchi katta aniqlikka ega bo‘lmagan qurilma tayyorlashga ehtiyoj tug‘ildi. Buning uchun olimlar bir qancha gerkonlardan foydalanishni maqul ko‘rishdi. Olingan natijalarni yorug‘lik diodlaridan iborat bo‘lgan lineyka asosida tasvirlab, UASRT orqali kompyuterga uzatishmoqchi. Ushbu qurilmaning ishlash algoritmini tuzing va dastur fragmentini yozing.

16. Magnit maydon kuchlanganligi asosida ishlovchi gerkon yordamida maxsus yashik ochilganligi yoki yopiq ekanligini aniqlovchi dastur fragmentini AVR ATmega oilasiga mansub bo‘lgan mikrokontroller asosida tuzing.

17. Magnit maydon kuchlanganligi asosida ishlovchi gerkon yordamida maxsus yashik ochilganligi yoki yopiq ekanligini aniqlovchi va bunga mos ravishda yorug‘lik indikatsiyalarini namoyon qiluvchi dastur fragmentini AVR ATmega oilasiga mansub bo‘lgan mikrokontroller asosida tuzing.

18. Magnit maydon kuchlanganligi asosida ishlovchi gerkon yordamida maxsus yashik ochilganligi yoki yopiq ekanligini aniqlovchi va bunga mos ravishda yorug‘lik va tovush indikatsiyalarini namoyon qiluvchi dastur fragmentini AVR ATmega oilasiga mansub bo‘lgan mikrokontroller asosida tuzing.

19. Aqlli signalizatsiya loyihasida ishga tushish vaqtini yorug‘lik diodlarida vizual tasvirlash masalasi qo‘yildi. Unga ko‘ra signalizatsiya hisob vaqti boshlanib toki ishga tushguncha yorug‘lik diodlari o‘z rangini qoradan oqqacha asta sekinlik bilan o‘zgartirishi kerak. Buning uchun RGB yorug‘lik diodlaridan foydalaniladi. Ishga tushish vaqti dasturlash jarayonida o‘rnatiladi va qurilma ish davomida o‘zgarmay qoladi. AVR ATmega oilasiga mansub bo‘lgan mikrokontroller asosida dastur fragmentini tuzing.

20. Aqlli signalizatsiya loyihasida ishga tushish vaqtini yorug'lik diodlarida vizual tasvirlash masalasi qo'yildi. Unga ko'ra signalizatsiya hisob vaqti boshlanib toki ishga tushguncha yorug'lik diodlari o'z rangini qoradan oqqacha asta sekinlik bilan o'zgartirishi kerak. Buning uchun RGB yorug'lik diodlaridan foydalaniladi. Ishga tushish vaqti qurilma ish davomida o'zgarishi mumkin. AVR ATmega oilasiga mansub bo'lgan mikrokontroller asosida dastur fragmentini tuzing.

21. Aqlli signalizatsiya loyihasida ishga tushish vaqtini yorug'lik diodlarida vizual tasvirlash masalasi qo'yildi. Unga ko'ra signalizatsiya hisob vaqti boshlanib toki ishga tushguncha yorug'lik diodlari o'z rangini dastlab qoradan oqqacha, so'ng sariqqa, keyin qizilga asta sekinlik bilan o'zgartirishi kerak. Buning uchun RGB yorug'lik diodlaridan foydalaniladi. Ishga tushish vaqti qurilma ish davomida o'zgarishi mumkin. AVR ATmega oilasiga mansub bo'lgan mikrokontroller asosida dastur fragmentini tuzing.

22. Aqlli klavyatura loyihasi uchun maxsus buyruqlarni kompyuterga uzatuvchi tugmalardan foydalanish ko'zda tutilmoqda. Bunda bir tugma bosilganda "a" dastur, ikkinchi tugma bosilganda "b" dastur ishga tushishi kerak. AVR ATmega oilasiga mansub bo'lgan mikrokontroller asosida dastur fragmentini tuzing.

GLOSSARIY

ALU (Arithmetic Logic Unit)- Arifmetik mantiqiy qurilma
APS (Application Program Section)- Amaliy dasturlash bo'limi
ASSR (Asynchronous Mode Status Register)- Taymer asinxron rejimi
CISC (Complicated Instruction Set)- Rivojlangan arxitektura buyruglar tizimi
CLR (Clear)- Tozalash
DDRA (Data Direction Register)- Port A yo'naltiruvchi registr
DDRB (Data Direction Register)- Port B yo'naltiruvchi registr
DDRC (Data Direction Register)- Port C yo'naltiruvchi registr
DDRD (Data Direction Register)- Port D yo'naltiruvchi registr
EEARH (EEPROM Address Register) - EEPROM adres registry katta bayt
EEARL EEPROM (Address Register) - EEPROM adres registry kichik bayt
EECR EEPROM (Control Register) EEPROM boshqaruv registri
EEDR EEPROM (Data Register)- EEPROM ma'lumot registri
EEPROM (Electrically EPROM)- Elektr o'chirishli xotira
EPROM (Erasable Programmable ROM)- Qayta dasturlanuvchi xotira
FB (Fusebit)- Bit-predoxranitel
Flash (Flash memory)- Flesh xotira
GIFR (General Interrupt Flag Register)- uzilishlar bayroq registri
GIMSK (General Interrupt Mask Register)-Uzilishlar niqob registri
GPR (General Purpose Registers)-Umumiy foydalanuvchi registr
IN (Input)- Kirish
INC (Increment)- 1 ga oshirish
IOR (Input Output Registers)- Kiritish chiqarish registri
IR (Instruction register)- Prosessor yadrosi qo'llanmasi registri
LB (Lockbit)- Blokirovka biti
MCU (Microprocessor Core Unit)- Prosessorli yadro
MCUCR MCU (general Control Register)- Prosessorli yadro umumiy boshqaruv registri
MCUSR MCU(general Status Register)- Prosessorli yadro umumiy status registri
MISO (Master In Slave Out)- Boshqaruv kirishli- yordamchi chiqish SPI interfeysi
MOSI (Master Out Slave In)- Boshqaruv hiqish - yordamchi c kirishli SPI

OC (Output Compare)- Chiqish solishtirgichi
 OSCCAL (Oscillator Calibration Register)- Kalibrovka registry rezonatori
 PINA (Input Pins, Port A)- A port kirish registri
 PINB (Input Pins, Port B)- B port kirish registri
 PINC (Input Pins, Port C)- C port kirish registri
 PIND (Input Pins, Port D)- D port kirish registri
 POR (Power-on Reset) – Manba Yo‘qligida qayta yuklash
 PORTA (Data Register, Port A) - A port ma’lumot registri
 PORTB (Data Register, Port B)- B port ma’lumot registri
 PORTC (Data Register, Port C)- C port ma’lumot registri
 PORTD (Data Register, Port D)- D port ma’lumot registri
 RET (Return)- Qaytish
 RISC (Reduced Instruction Set Computer)- Qisqartirilgan komandalar tizimi
 ROM (Read Only Memory)- Doimiy xotira
 SP (StackPointer)- Stek ko‘rsatkichi
 SPH (Stack Pointer High)- Katta bayt,stek ko‘rsatkichi
 SPI (Serial Peripheral Interface)- Ketma ket periferiya interfeysi
 SPL (Stack Pointer Low)- Kichik bayt,stek ko‘rsatkichi
 SRAM (Static Random Access Memory)- Statik operativ xotira
 SREG (Status register)- Xolatlar registri
 TCNT1H (Timer/Counter1 High-byte)- Taymer/hisoblagich 1, kata bayt
 TCNT1L (Timer/Counter1 Low-byte)- Taymer/hisoblagich 1, kichik bayt
 TIFR (Timer/Counter Interrupt Flag)- Uzilishlarni tashkil qilish taymer hisoblagichi
 UART (Universal Asynchronous Receiver)- Universal qabul qilib uzatgich
 WDT (Watchdog Timer)- Qo‘riqchi taymer

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida"gi farmoni. (2017-yil 7-fevral, PF-4947-son).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori (2017 yil 20 aprel, PQ-2909-son).
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori (2017 yil 27 iyul, PQ-3151-son).
4. Yunusov J.Yu., Abasxanova X.Yu. Raqamli qurilmalar va mikroprosessor tizimlari .O‘quv qo‘llanma. Itisod , Toshkent 2010yil, .-256 b.
5. Abasxanova X.Yu., Amirsaidov U.B. Mikroprotsesszorlar. Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma. Toshkent 2017 yil. -350 b.
6. М.Б.Лебедев CodeVision AVR Пособие для начинающих .М-Додека-XXI.2010. -592 с.
7. Ю.В. Новиков. Основы микропроцессорной техники. Учебное пособие. Москва: ИНТУИТ, 2012. - 357 с.
8. Жмакин А.П. Архитектура ЭВМ.-СПб.: БХВ-Петербург, 2014. -320 с.
9. Преснухин Л.Н. Микропроцессоры: В 3 кн. Кн. 2: Средства сопряжения. Контролирующие и управляющие системы: Учеб.для техн. Вузов /В.Д. Вернер, Н.В. Воробев, А.В. Горячев и др.; Под ред. Л.Н. Преснухина. - Мн.: Выш.шк., 2017.-303 с
10. Зарубин А.А. Микропроцессорное программное управления. Архитектура IХА. Методические рекомендации к практическим занятиям. СПбГУТ.- СПб, 2004.
11. Белов А.В. Создаем устройства на микроконтроллерах.- СПб.: Наука и техника, 2007.- 304 с
12. Хартов В.Я. Микроконтроллеры AVR. Практикум для начинающих.- М.: МГТУ им. Н.Э.Баумана, 2007.- 240 с
13. Василев А.Е. Микроконтроллеры. Разработка встраиваемых приложений: Учеб. Пособие. СПб: СПбГПУ, 2003.- 210 с.
14. Ramesh Chopra "Microcontroller Based Projects" EFY

- Enterprises Pvt Ltd. 2010
15. Ю.Ревич. Практическое программирование микроконтроллеров AtmelAVR на языке ассемблера
 16. Брей.Б. Применение микроконтроллеров PIC18. Архитектура, программирование и построение интерфейсов с применением С и ассемблера.Пер.с англ.-К: "МК пресс",Спб Корона-Век .2008г. -576 с.
 17. А.А. Зубарев. Ассемблер для микроконтроллеров AVR.Учебное пособие.-Омск: Изд-воСиБАДИ, 2007. - 112 с.
 18. А.В.Евстифеев. Микроконтроллеры AVR семейств Tiny М-Додека-XXI.2008/-560с.
 19. М.С.Голубцов. Микроконтроллеры AVR:от простого к сложному.М.:Солон-Пресс 2017.-288 с.
 20. А.В.Евстифеев. Микроконтроллеры AVR семейств Tiny М-Додека-XXI.2018. -560 с.
 21. Б.Брей. Применение микроконтроллеров PIC. Архитектура,программирование и построение интерфейсов с применением С и ассемблера .Пер с англис.МК:.Пресс., СпбКОРОНА ВЕК 2008.-576 с.

Axborot resurs manbalari

<http://www.elkutubhona.narod.uz>

<http://ziyonet.uz>

<http://www.intuit.ru/studies/courses/3/3/info>

MUNDARIJA

KIRISH	3
1. Mikrokontrollerlarni tashkillashtirish	
1.1 Mikrokontroller arxitekturasi	5
1.2 Mikrokontroller protsessorli yadrosi.....	7
1.3 Mikrokontroller buyruq tizimining xususiyatlari	12
1.4 Mikrokontrollerlarda xotirani tashkil etilishi va u bilan ishlash	23
1.4.1 Mikrokontroller dasturiy xotirasi	24
1.4.2 Mikrokontroller ma'lumot xotirasi	26
1.5 Mikrokontroller registrlari	27
2. Mikrokontrollerlarni tashqi muhit bilan aloqasini tashkillashtirish	
2.1. Mikrokontrollerlarda axborot kiritish-chiqarish portlarini tashkillashtirish va strukturasi.....	28
2.2. Taymer-hisoblagichlar.....	30
2.3. Jarayonlarga ishlov berish bloklari	32
2.4. Uzilishli hodisalarga xizmat ko'rsatish bloklari.....	33
3. Bir kristalli mikrokontrollerlar	
3.1. PIC mikrokontrollerlari tarkibi, parametrlari va tashkillashtirish xususiyatlari.....	35
3.2. PIC mikrokontrollerlari apparat vositalarining strukturasi va imkoniyatlari.....	38
3.3. PIC mikrokontrollerlari buyruqlar tizimi va maxsus funksiyalari.....	40
3.4. AVR mikrokontrollerlari tarkibi, parametrlari va tashkillashtirish xususiyatlari.....	50
3.5. ATMEga128 mikrokontrollerining strukturasi va imkoniyatlari	56
3.6 Mikrokontrollerlar asosidagi tizimlarning imkoniyatlarini kengaytirish va sifatini oshirish uchun maxsus funksiyalar ...	58
4. Mikrokontrollerlarlar asosida qurilmalarini loyihalashtirish	
4.1. Mikrokontrollerlarning dasturiy ta'minotini yaratish va apparat ta'minoti bilan integrasiyalash	62
4.2. BASCOM-AVR dasturiy muxitida loyihalashtirish.....	64
4.3. ATMEL STUDIO 6 dasturiy muxitida loyihalashtirish	72
4.4. Fritzing dasturiy vositalarida sozlash.....	77
4.5. AVRDUDE dasturiy vositalarida sozlash	81
4.6. Code Vision AVR muxiti va uning imkoniyatlari.....	83
4.7. Arduino imkoniyatlari	87
BOBLAR BO'YICHA NAZORAT TESTLARI	106
5. Laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar	121
GLOSSARIY	195
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	197

**X.YU.ABASXONOVA,
M.B. MIRZAYEVA,
S.S. PARSIYEV**

MIKROPROTSESSOR

(O‘quv qo‘llanma)

Toshkent – «NIHOL PRINT» OK – 2021

Muharrir: A.Tog‘ayev
Tex. muharrir: F.Tog‘ayeva
Musavvir: B.Esanov
Musahhiha: O.Muxammadiyeva
Kompyuterda
sahifalovchi: G.Tog‘ayeva

9323



№ 7439-765f-47f1-7ea1-a683-4648-1314.
Bosishga ruxsat etildi: 4.06.2021. Bichimi 60x841 /16.
Shartli bosma tabog‘i 12,75. Nashr bosma tabog‘i 12,5.
Adadi 100. Buyurtma № 64.

«Nihol print» Ok da chop etildi.
Toshkent sh., M. Ashrafiy ko‘chasi, 99/101.